

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

Qarshi davlat universiteti
O‘zbek filologiyasi fakulteti
O‘zbek tilshunosligi kafedrasи

“Himoyaga tavsiya etilsin”

O‘zbek filologiyasi fakulteti
dekani _____ **R. Jumayev**
“___” _____ 2018-yil

MIRZAEVA DINARA

5120100- “Filologiya va tillarni o‘qitish” (o‘zbek tili)
ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavri darajasini olish uchun
(IV-kurs 014-12 - guruh)

O’ZBEK TILIDA FRAZEOLOGIZMLARNING SEMANTIK

TAHLILI

mavzusida yozgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Talaba: _____ **D. Mirzaeva**
Ilmiy rahbar _____ **dots. X. Jabborov**
“___” _____ 2018 -yil

“Himoyaga tavsiya etildi”
O‘zbek tilshunosligi kafedrasи
mudiri _____ **dots. B. Bahriiddinova**
“___” _____ 2018- yil

Qarshi-2018

MUNDARIJA

ISHNING UMUMIY TAVSIFI.....	3
II BOB. O'ZBEK TILI FRAZEOLOGIZMLARINING UMUMIY TAVSIFI VA TADQIQI MASALASI	
1.1.Frazeologizmlarining umumiyl tavsifi va tadqiqi masalasi.....	7
1.2. Ot komponentli frazeologizmlarning semantik xususiyatlari	24
1.3. Sifat komponentli frazeologizmlarning semantik xususiyatlari	38
II BOB. FE'L KOMPONENTLI FRAZEOLOGIZSMLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI	
2.1. Fe'l komponentli frazeologizmlar semantikasi.....	44
2.2 Fe'l frazeologizmlar paradigmalari.....	51
Umumiyl xulosalar	56
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	59

ISHNING UMUMIY TAVSIFI

Bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbliji. Mustaqillikka erishganimizdan keyin xalqimizning o‘z yurti, o‘z tili, madaniyati, qadriyatlari tarixini bilishga, o‘zligini anglashga qiziqishi ortib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev Shavkat Miromonovichning 1017 -yil 20- apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”¹ gi qarorida “ Oliy ta’lim muassasalari ilmiy salohiyatini mustahkamlash, oliy ta’limda ilm-fanni yanada rivojlantirish, uning akademik ilm-fan bilan integratsiyalashuvini kuchaytirish, oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilariniing ilmiy-tadqiqot faoliyati samaradorligini oshirish,iqtidorli talaba-yoshlarni ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanishga keng jalg etish” kabi masalalar oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilar va talabalar oldiga ko‘pgina talablarni bajarish vazifasini qo‘ydi.

O‘zbekistonn Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev Shavkat Miromonovichning 1017- yil 7- fevraldag“ O‘zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”¹ gi Farmoning to‘rtinchi Ijtimoiy sohani rivojlantirish“ deb nomlangan to‘rtinchi yo‘nalishida “umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus va oliy ta’lim sifatini yaxshilash hamda ularni rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirish” asosiy vazifalardan biri sifatida belgilab qo‘yilgan.

Ma’lumki, istiqboldan keyin o‘zbek tili sohasida milliy ruh va milliy qadriyatlarni tiklash uchun harakat kuchaydi. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuning qabul qilinishi o‘zbek tilining keng imkoniyatlaridan foydalanishga zamin tayyorladi va o‘zbek tilining lisoniy muammolarini tahlil qilish, nutq madaniyati va uslubiy imkoniyatlarini yanada

¹ Мирзиёев Ш.М. “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида” қарори.- Халқ сўзи газетаси. 2017 йил, 21 апрель.

chuqurroq o‘rganish vazifalarini kun tartibiga qo‘ydi. Binobarin, birinchi Prezidentimiz ta’kidlaganidek: “Fan-taraqqiyot demakdir. Fanni yuksak rivojlantirmay, Vatanning kelajagi haqida gapirish qiyin”².

Keyingi yillarda tilning leksik qatlamini sistem yondashuv yo‘nalishida o‘rganishga alohida e’tibor qaratilmoqda³. Turkiyshunoslikda, xususan? o‘zbek tilshunosligida frazeologizmlar semantik-uslubiy tahlili Sh.Rahmatullayev, A.Hojiyev, B.Yo‘ldoshev, A.Mamatov, A.Rafiyev kabi olimlarning ilmiy asarlari, o‘quv qo‘llanmalari, ilmiy maqolalarida tadqiq etilgan. Shu bilan birga, frazeologizmlar komponent tarkibi va tahlili, ularning shaklan va mazmunan tarkib topishidagi o‘ziga xos xususiyatlarni tadqiq etish o‘zbek tilshunosligining dolzarb masalalaridan biridir. Frazeologizmlar til birligi va nutqning ko‘rki, xalqning ma’naviy va madaniy merosi sifatida ilmiy o‘rganilishi, talqin va tahlil etilishi zarur.

Frazeologizmlar tarkibini chuqur tahlil etmasdan turib, uning shakllanishi masalasiga aniqlik kiritib bo‘lmaydi. Frazeologizmlar ma’no tarkibi, hosil bo‘lishi komponent tahlil natijasida namoyon bo‘ladi. Mazkur muammolarni o‘rganish “O‘zbek tilida frazeologizmlarning semantik tahlili” deb nomlangan bitiruv malakaviy ishimiz mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi. Bitiruv malakaviy ishining maqsadi frazeologizmlarning semantik tuzilishi va paradigmatic shakllarini o‘rganishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari. Bitiruv malakaviy ishi oldiga quyidagi vazifalar qo‘yildi:

- frazeologizmlar tarkibidagi ot, sifat va fe’l so‘zlarni aniqlash va tahlil etish;

¹ Мирзиёев Ш.М. “Ўзбекистон республикасини янада ривожлантириш бўйича харакатлар стратегияси тўғрисида” фармони .- “Қашқадарё” газетаси.. 2017 йил, 7 февраль.

² Karimov I.A. Zamonaviy kadrlar – taraqqiyotimizning muhim omilidir // Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida. 6-qism. -Toshkent: O‘zbekiston, 1998. - B.266.

³ Ne’matov H , Rasulov R. O‘zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. –Toshkent: O‘qituvchi, 1995. – B. 8.

- frazeologizmlar komponentlari tarkibini aniqlash;
- frazeologizmlar tarkibidagi mustaqil bo‘lmagan so‘zlarni tahlil etish.

Bitiruv malakaviy ish mavzusining o‘rganilganlik darajasi. O‘zbek tilshunosligida frazeologizmlar grammatik, semantik, uslubiy yo‘nalishda o‘rganilgan. Tilshunoslik, xususan, o‘zbek tilshunosligi tarixida frazeologizmlar leksikologiyaning tarkibiy qismi sifatida qaralgan.

O‘zbek tili frazeologizmlari dastlab Sh.Rahmatullayevning ishlarida ilmiy tadqiq etilgan. U o‘zining qator ilmiy tadqiqotlarida frazeologizmlarning til hodisasi sifatidagi o‘ziga xosliklari, boshqa til hodisalari bilan o‘xhash va farqli xususiyatlari va grammatik tabiatini o‘rgandi, ilk bor o‘zbek frazeologizmlarining izohli lug‘atini yaratdi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, frazeologizmlar tahlili ko‘plab leksik sathdagi ishlarda ham uchraydi. B.Yo‘ldoshev frazeologizmlar funksional-uslubiy xususiyatlari¹, A.Mamatov frazeologizmlar shakllanishining lisoniy va nolisoniy xususiyatlari², Q.Hakimov gapga teng frazeologizmlar yuzasidan tadqiqotlar olib borganlar³.

Frazeologizmlar o‘zining tabiatini bilan komponent tahlilni talab etadi. Sh.Rahmatullayev frazeologizmlarni komponent tadqiq etganiga qaramay⁴, bu izlanishlar o‘zbek tili frazeologizmlarining barcha jihatlarini qamrab olmagan. Zero, o‘zbek tili frazeologizmlarining komponentlari, ularning frazeologizmlarni shakllantirishdagi o‘rnini tadqiq etish o‘zbek tilshunosligidagi dolzarb masalalardan biridir.

Bitiruv ishining ilmiy yangiligi shundaki, unda istiqlol davri yozuvchilarining asarlari tilini, shu jumladan frazeologizmlardan foydaalanish mahoratini o‘rganish maqsad qilib olingan. Ishda keltirilgan ma’lumotlar,

¹ Yo‘ldoshev B. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida frazeologik birliklarning funksional-uslubiy xususiyatlari: Filol. fanlari d-ri ... diss. – Toshkent, 1999. 297 b.

² Mamatov A.E. O‘zbek tili frazeologizmlarining shakllanishi masalalari: Filol. fanlari d-ri diss. ... avtoref. - Toshkent, 2000. – 56 b.

³ Hakimov Q.M. O‘zbek tilidagi sodda gap qoliqli frazemalarning zaruriy birikuvchanliklari: Filol. fanlari nomzodi diss. ... avtoref. – Toshkent, 1994. – 24 b.

⁴ Rahmatullayev Sh. Leksema va frazema ma’nosini komponent tahlilining ba’zi natijalari // O‘zbek tili va adabiyoti. –Toshkent, 1986. - №3. – B. 16-21.

materiallar asosida o‘zbek tili turg‘un iboralarini umumiy o‘rta ta’lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida o‘rganishga doir takliflar bayon etiladi.

Bitiruv malakaviy ishining o‘rganish obyekti. Tadqiq obyekti o‘zbek tili frazeologizmlaridir. Frazeologizmlar semantik tahlilida Sh.Rahmatullayevning “O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati” va B.Yo‘ldoshev va boshqalarning “Frazeologik so‘zlik” manbalaridan foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishining tahlili usullari. Bitiruv malakaviy ishida qiyoslash, tavsiflash, lingvistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishining yangiligi quyidagilardan iborat:

- frazeologizmlar komponent tahlil qilindi;
- frazeologizmlar semantik xususiyatlari aniqlandi;
- frazeologizmlar paradigmatic shakllari belgilandi.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishining ilmiy xulosalari o‘zbek tili frazeologiyasi bo‘yicha olib borilayotgan tadqiqotlarga nazariy manba vazifasini o‘taydi. Ishning materiallaridan o‘zbek tili frazeologiyasi bo‘yicha mashg‘ulotlarni o‘tishda foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi va hajmi. Bitiruv malakaviy ishi umumiy tavsif, uch asosiy bob, umumiy xulosalar va foydalanylган adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 62 sahifani tashkil etadi.

I BOB. O'ZBEK TILI FRAZEOLOGIZMLARINING UMUMIY TAVSIFI VA TADQIQI MASALALARI

1.1.Frazeologizmlarning umumiy tavsifi va tadqiqi masalalari.

Frazeologizmlar – xalq asr-asrlar mobaynida til vositasida yaratgan timsoliy (obrazli) ifoda va tasvir vositalaridir. Shuning uchun ham tilni va badiiy adabiyotni frazeologizmlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Xalq yaratgan frazeologizmlarni, shartli ravishda, "qulqoqqa yoqqan gaplar" deb hisoblash mumkin. Chunki qulqoqqa yoqmaganida xalq ularni asr-asrlar asrabavaylab, tildan tilga, dildan dilga o'tkazib kelmagan bo'lar edi.

Tilshunoslikda olimlar frazeologizmlarni, kelib chiqishiga ko'ra, ikkiga – og'zaki va yozma adabiyot namunalariga bo'lishadi. Mullojon Fozilov yozma adabiyot namunalari bo'lmish frazeologizmlarga badiiy, ilmiy, siyosiy asarlar hamda matbuotda paydo bo'lgan idioma, ibora, matal va maqollarni (hikmatli so'zlarni) qo'shadi. Bundan anglashiladiki, tilda, adabiyotda va og'zaki nutqda frazeologizmlardan unumli foydalaniladi va yangi-yangi frazeologizmlar yuzaga kelishi ham mumkin.

Albatta, frazeologizmlarni, asosan, xalq yaratadi. Yozma adabiyot namunalarida shoir, yozuvchi, dramaturglar ham xuddi xalq frazeologizmlariga o'xshab ketadigan yangi-yangi, tesha tegmagan ifodalar ishlatadi. Ular shu ijodkorning topilmasi. Ammo ko'p ishlatilaversa, ana shu yozma adabiyot mahsuli bo'lgan ifodalar ham xuddi frazeologizm kabi xalq o'rtasida ommalashadi va iste'molga ko'chadi. Keyinchalik, hatto, uni kim yaratganining ham unchalik ahamiyati bo'lmay qoladi. Tilshunoslar, adabiyotshunoslar va tarjimonlar ifoda izlayotganda ana shu mashhur "qolip"lardan osongina foydalanib ketaveradi.

Frazeologizmlar tushunchasiga maqol ham kiradi. Maqol – hamma xalqda ham mavjud. Maqollar tipologik jihatdan hamma xalqda ham deyarli bir xil qonuniyatlar asosida yaratiladi. Shu bilan birga, har bir xalqning maqoli milliy, ya'ni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi.

O‘zbek xalqi lisoniy-badiiy merosida frazeologizmlar shunchalar ko‘pki, ikki jildlik “O‘zbek xalq maqollari”da maqollar berilgan bo‘lsa, professor Shavkat Rahmatulayevning “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati”da maqoldan boshqa frazeologik birikmalar kiritilgan. Ammo bu ikki manba tilimizdagi barcha maqol va frazeologizmlarni qamrab olgan, deb ayta olmaymiz. Chunki bu ikki to‘plamga, asosan, hozirgi paytda ham faol ishlatilayotgan namunalar olingan, xolos. Holbuki, ming yillik yozma adabiyotimiz bor. Agar shu manbalardagi maqol va frazeologizmlar ham alohida lug‘at qilinsa, bu jihatdan ham xalqimiz juda katta boylikka ega ekani ayonlashadi.

Albatta, qadimgi manbalarda uchraydigan maqol va frazeologizmlarni o‘rganish, lug‘at qilish ishlari ham boshlangan, ayrim lug‘atlar ham chop etilgan. Masalan, tilshunos Ergash Umarov Alisher Navoiyning birgina “Xazoyin ul-maoniy”i asosida frazeologizmlar lug‘atini tuzgan va bu jarayon davom etib kelmoqda.

Modomiki, frazeologizmlar tilning boyligi, ularda badiiylik kuchli bo‘lib, fikrni ta’sirchan ifodalashda juda qo‘l kelar ekan, nutqda va tilda ulardan unumli foydalanish – tabiiy. Modomiki, yozma matnlarda va og‘zaki nutqda frazeologizmlar ko‘p uchrar ekan, ularni ilmiy o‘rganish hamisha dolzarb masala bo‘lib qolaveradi.

Frazeologizmlar tushunchasiga quyidagilar kiradi:

ibora;

matal;

maqol.

Bu frazeologik birliklarning har biri o‘ziga xosliklarga ega. Tilshunoslikda bularga ta’riflar berilgan, ularning o‘xhash va farqli taraflari o‘rganilgan. Masalan, Shavkat Rahmatullayev ibora haqida quyidagilarni yozadi: “Ibora yirik til birligi bo‘lib, kamida ikkita mustaqil so‘zdan (leksemadan) tarkib topadi. Shunga ko‘ra, “iboraning ifoda plani” deb so‘zlar (leksemalar), shular tarkibidagi til birliklari ko‘zda tutiladi. Tarkibli morfemaning, leksemaning ma’nosи odatda

uni tashkil qiluvchi til birliklariga xos ma'nolarning yig'indisi sifatida gavdalaniadi, qismlar ma'nosi asosida butunning ma'nosi tushuniladi. Ibora ham – tarkibli til birligi, lekin uning ma'nosi tarkibidagi leksemalarga xos ma'nolarning oddiy yig'indisiga teng bo'lmaydi” .

XIX asrning ulkan rus tili tadqiqotchisi V. Dal matal bilan maqolni o'zaro qiyoslab, shunday degan: “Matal – xalqning ta'rificha, g'uncha, maqol esa – meva; bu ta'rif – juda ham to‘g'ri” .

M. A. Ribnikovaning fikricha, maqol to‘liq, tugal mazmun anglatuvchi gap bo‘lsa, matal ko‘chma ma’no ifodalovchi ibora, u maqolning yarmidir.

Shunday qilib maqol va matallarda, naql va barqaror iboralarda xalqning hayotiy muammolari – mehnat-mashaqqati, g‘am-anduhi, rasm rusumlari – hamma-hammasi ko‘zgudagidek aks etib turadi. Xalqning til boyligi – uning bo‘yoqdor, serjilo leksikasining, frazeologiya qatlaming boyligi bilan ham o‘lchanadi.

Turli tillarda gaplashuvchi xalqlarda shakl va mazmun jihatidan bir-biriga juda o‘xhash, bir-biriga mos tushadigan maqol-matallar uchraydi. Bu haqida fikr yuritishdan oldin tilshunoslikning frazeologizm yo‘nalishi, u o‘rganadigan til birliklari, ularning turlari va o‘zaro farqlari xususida so‘z yuritish zarurdir. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasida frazeologiya xususida bat afsil ma'lumot berilgan. Unda yozilishicha, yunoncha phrasis ya’ni ifoda, ibora kabi ma’nolarni anglatuvchi so‘zdan kelib chiqqan soha tilning frazeologik tarkibini uning hozirgi holatida va tarixiy taraqqiyotida tekshiruvchi bo‘limi, qolaversa, muayyan tildagi frazeologizmlar majmui hamdir.

Idioma-frazeologizmlar, frazeologik birikmalar va barqaror jumlalar (maqol, matallar, gapga teng boshqa frazeologizmlar) o‘rtasidagi muayyan tafovutlarga qarab ko‘plab tadqiqotchilar frazeologiyani 2 xil: tor va keng ma’noda tushunadilar. Uni keng ma’noda tushunadigan bo‘lsak, maqol va matallar, folkloriga xos barqaror jumlalar, ba’zi muloqot shakllari ham kiritiladi. Asrlar davomida shakllangan frazeologizmlar og‘zaki nutqda, badiiy adabiyotda hamda

publitsistikada o‘tkir, ta’sirchan tasviriy vosita sifatida keng qo‘llanadi. Yozuvchilar o‘z asarlarida frazeologizmlardan unumli foydalanish bilan birga mavjud frazeologizmlarni asar ruhiga moslagan holda qisman o‘zgartiradilar, shu yo‘l bilan yangi iboralar yaratadilar.

Turli xususiyatlarga ega bo‘lgan frazeologizmlar majmui tilning frazeologik qatlamenti tashkil etadi. Tilning frazeologik qatlami esa doimiy ravishda yangi frazeologizmlar bilan boyib boradi va xalqning madaniy-tarixiy tajribasini, shuningdek, qonunlarini aks ettiradi. Frazeologizmlarni o‘rganish va tasnif qilish bilan tilshunoslikning frazeologiya bo‘limi shug‘ullanadi.

Xalqning nutqida faol ishlatiladigan, asrlar o‘tsada, insoniyat xotirasidan ko‘chmay kelayotgan maqol, matal, iboralar tabiiyki, xalqning orzu-istiklari, o‘yxayollari aks etgan materiallarda ham namoyon bo‘ladi. Ularni batafsil tahlil etish, baholashdan oldin frazeologizmlarning turlarini aniq ajratib olish maqsadga muvofiqdir. O‘zbek olimlari ichida G‘aybull Salomovning 1966 yili nashrdan chiqqan “Til va tarjima” monografiyasida frazeologizmlarning tarjimasi xususida so‘z yuritilar ekan, maqol, matal va iboralarning o‘ziga xos xususiyatlari haqida ham batafsil ma’lumot berilgan. Jumladan, G‘.Salomov maqollar haqida shunday yozadi: “Maqol – xalq aql-idrokining mahsuli, uning hukmi, ko‘p asrlik tajribalari majmui, turmushdagi turli voqeа-hodisalarga munosabatining ifodasidir. Maqol kundalik hayotda, kishilarning bir-birlari bilan muomalada bo‘lishi jarayonida tug‘iladi. Xalq maqoli – halqning mulkidir. Maqol qayg‘usi – xalq qayg‘usi, maqol g‘azabi – xalq g‘azabi, maqol kulgusi – xalq qayg‘usi, va maqol kinoyasi – xalq kinoyasi demakdir” .

Darhaqiqat, maqollar borki, “shirin” – pand-nasihat qiladi, aql o‘rgatadi, mard va botir bo‘lishga da’vat etadi; “achchiq” – aybingizni dangal yuzingizga aytadi, poraxo‘r, muttaham, yolg‘onchi, o‘g‘ri, lo‘ttivoz, ikki yuzlamachi, xushomadgo‘y, laganbardor, qallob odamlarning ta’zirini beradi; achchiq, alam qildiradigan so‘zlar bilan piching qiladi, araz va kinoya aralash boplab adab beradi.

Xalqimiz “So‘z ko‘rki – maqol”, – deb bejiz aytmagan, albatta. Chunki maqol – xalqning asr-asrlar mobaynida sayqallana-sayqallana, eng ma’qul va maqbul shaklga kelgan ifoda turi. Shuning uchun adabiy janrlar ichida til va uslub jihatidan maqoldan puxta-pishiqroq bir tur yo‘q. Bu janrda so‘zlar nafaqat ayttilmoqchi bo‘lgan fikrni bayon qiladi, balki, maqolni eshitgan, yo o‘qigan odamni o‘ylantiradi, hissiyotiga ta’sir qiladi. Ba’zida maqollariga qarab shu xalq tilining kuch-quvvatiga baho berish mumkin.

Bu jihatdan o‘zbek xalq maqollari ham hech bir xalq maqollaridan qolishmaydi. Bu fikrni mazkur ifoda turining bizdagi miqdoriga qarab ham, sifatiga qarab ham baralla aytish mumkin.

Frazeologizmlar, xususan, maqolarsiz nutq yo‘q. Har birimiz gapimizning yanada ta’sirchanroq chiqishini o‘ylab, iloji boricha, nutqimizni maqol bilan bezaymiz. Olimlarning fikricha: “Mutaxassislar hisob-kitobiga qaraganda, har bir kishining nutqida 80 tagacha maqol bor ekan. Buni biz bilmaymiz, chunki u xotiramizda. So‘ralganda, 80 ta maqolni ketma-ket hech ham aytib berolmasligimiz mumkin. Ammo faoliyatimiz davomida uni turli munosabatlar bilan ishlatamizu, qo‘llaymiz” .

Maqol – xalq og‘zaki ijodi mahsuli. Ammo mingyillik yozma adabiyotimiz namunalarini ham maqolarsiz tasavvur qilish qiyin.

Aslida, o‘zbek xalq maqollarini yozib olib, to‘plash keyinroq boshlangan. Bu haqda “O‘zbek xalq maqollari” ikki jiddligida shunday ma’lumot beriladi: “O‘zbek xalq maqollarini to‘plash va ularga muayyan bir tartib berish ishlari XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan edi. H.Vamberi (1867) va N.P.Ostroumov (1895) to‘plab, nashr etgan maqollar ana shu jumлага kiradi. Ammo xalq og‘zaki ijodi asarlarini, jumladan, maqollarni haqiqiy ravishda to‘plash va nashr etish ishlari sobiq Ittifoq davrida boshlandi. Natijada birin-ketin B. Rahmonov (1924), Sh. Jo‘rayev (1926), B. Karimov (1939), Sh. Rizayev, O‘. Azimov, O‘. Xolmatov (1941), H. Zarifov (1947), M. Afzalov, S. Ibrohimov, S. Xudoyberganov (1958, 1960, 1965, 1978), R. Jumaniyozov (1964, 1967, 1970), E. Siddiqov (1976, 1986),

B. Sarimsoqov, I. Haqqulov, A. Musoqulov, R. Zarifov (1978), B. Sarimsoqov, A. Musoqulov, M. Madrahimova (1981, 1984) kabi folklorshunoslar, fan va madaniyat arboblari tomonidan tuzilgan turli xarakterdagi va turli hajmdagi maqol to‘plamlari nashr etildi” .

Tilshunoslikda qayd etilganidek: “Maqolga adabiy nuqtai nazardan qiziqish, asar badiyligini oshirish va badiy til ravonligini ta’minlash uchun undan foydalanish hamma zamon so‘z san’atkorlarining doim diqqat markazida bo‘lgan. Yusuf Xos Hojib, Rabg‘uziy, Qutb Xorazmiy, Atoyi, Lutfiy, Sakkokiy, Alisher Navoiy, Muhammad Solih, Majlisiy, Abulg‘ozzi, Turdi, Gulxaniy, Munis, Nodira, Muqimiyy, Furqat, Avaz, Hamza va boshqalarning asarlari sinchiklab o‘rganilsa, ular tarkibida qanchadan-qancha maqollar ba’zan aynan, ba’zan o‘zgargan holda mavjudligiga qanoat hosil qilamiz. Maqolga maxsus, agar ta’bir joiz bo‘lsa, folkloristik nuqtai nazardan, garchi u epizodik xarakterda bo‘lsa-da, munosabatda bo‘lingan hollarga ham duch kelamiz” .

Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, o‘zbek xalq maqollarini ilk bor to‘plagan olim – Mahmud Koshg‘ariy. Mutaxassislarning aniqlashicha, uning XI asrda yaratilgan tilshunoslikka oid buyuk asari – “Devonu lug‘otit turk”da turli munosabatlar bilan turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan 400 ga yaqin maqol va matal keltirilgan. Bu til boyliklarining ko‘philigi bugun ham ishlatelyapti. Faqat ayrimlari ba’zi o‘zgarishlarga uchragan, xolos.

Frazeologiya masalalarini tadqiq etish jahon tilshunosligida keng tus olgan. Frazeologiyaning nazariy va amaliy jihatlarini qamrab oluvchi monografiyalar, ilmiy maqolalar, amaliy qo‘llanmalar, frazeologik lug‘atlar yuzaga kelgan. Frazeologizmlar morfologik xususiyati va paradigmatisasi o‘rganilgan, gapdagi sintaktik vazifalari aniqlangan.

O‘zbek tilshunosligida ham frazeologizmlarni ilmiy tadqiq etish bo‘yicha doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilingan, o‘nlab ilmiy maqolalar, o‘quv qo‘llanmalari, frazeologik lug‘atlar yuzaga kelgan.

SH.Rahmatullayevning “O‘zbek frazeologiyasining ba’zi masalalari” nomli doktorlik dissertatsiyasi va shu nomli monografiyasi frazeologizmlar ilmiy tadqiqiga doir dastlabki tadqiqotlar hisoblanadi. Bu tadqiqotlarda frazeologizmlar lug‘aviy birlik sifatida o‘rganilishi zarur ekanligi asoslandi va frazeologizmlar grammatik tabiatini keng yoritildi.

Shuningdek, frazeologizmlar grammatik va semantik jihatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan qator ilmiy ishlar¹ ham o‘zbek frazeologiyasining rivojiga asos bo‘lmoqda. Frazeologizmlarni stilistik yo‘nalishda o‘rganishga ham alohida e’tibor qaratilib, o‘zbek yozuvchi va shoirlari asarlarida qo‘llanilgan frazeologizmlar uslubiy jihatlari tadqiq etildi va o‘zbek badiiy adiblarining frazeologizmlardan foydalanish mahorati va ularning uslubiy xususiyatlari bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar² yuzaga keldi.

B.Yo‘ldoshevning doktorlik dissertatsiyasi³da ilk bor frazeologizmlar uslubiy jihatdan sistem holatida o‘rganilib, ularning badiiy matndagi imkoniyatlari, til materiallari asosida tadqiq etildi.

A.Mamatovning “O‘zbek tili frazeologizmlarining shakllanishi masalalari”⁴ nomli doktorlik dissertatsiyasi frazeologizmlar shakllanishining o‘ziga xos vosita va usullari, ularning shakllanishi, mazmun jihatidan qaror topishida so‘zlarning o‘rni, frazeologizmlar shakllanishining leksik va semantik xususiyatlari kabi dolzarb masalalar tahlil etilgan.

Tilshunoslikda frazeologizmlar struktural, semantik, uslubiy jihatlardan murakkab hodisa ekanligi barcha tilshunoslardan tomonidan e’tirof etilgan.

¹ Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati; Yo‘ldoshev B. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida frazeologik birliklarning funksional-uslubiy xususiyatlari: Filol.fanlari d-ri diss. ... avtoref. - Toshkent, 1993. – 46 b.; Mamatov A.E. O‘zbek tili frazeologizmlarining shakllanishi masalalari: Filol. fanlari d-ri diss. ... avtoref. - Toshkent, 2000. – 56 b.

² Berdiyorov H., Yo‘ldoshev B. O‘zbek frazeologiyasiga doir bibliografik ko‘rsatkich. Samarqand: 1977.

³ Yo‘ldoshev B. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida frazeologik birliklarning funksional-uslubiy xususiyatlari. Filol.fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati. - Toshkent, 1993. –46 b.

⁴ Маматов А.Э. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари: Филол. фанлари д-ри дисс. ... автореф. - Тошкент, 2000. – 56 б.

Frazeologizmlar tarkibiy va ma'noviy shakllanishi leksikaga nisbatan murakkab amalga oshadi.

O'zbek tilshunosligida frazeologizmlar "so'zga muqobil" nazariyasi asosida tadqiq va tavsif etildi. Bu nazariyaga ko'ra, frazeologizmlar ham leksemalar kabi nominativ xususiyatiga ega bo'lgan til birligidir deb e'tirof etilib, leksemaning alohida shakli sifatida tadqiq etildi va leksikologiya tarkibida o'rganildi. Darhaqiqat, frazeologizmlar vazifaviy xususiyatlari leksemalarga monand bo'lsada, frazeologizmlar murakkab til birligi bo'lganligidan leksemalardek tadqiq va tavsif etish yetarli emas. Frazeologizmlar so'z va so'z shakllaridan shaklan tarkib topadi. Leksemalarning asosi frazeologizmlar yuzaga kelishi uchun asosiy manba hisoblanadi, chunki aynan leksemalar frazeologizmlar uchun "qurilish ashyosi"dir. Ammo "frazeologik birlik ifoda plani bilan mazmun planining o'ziga xos qarama(qarshiligi va birligi sifatida yuzaga keladi, shunga ko'ra, frazeologik birliklar alohida yondashishni, o'rganishni talab qiladi"¹.

Avvalo, frazeologizmlar muayyan shaklga ega bo'lib, ularning shakllanishi uchun leksemalar moddiy asos bo'ladi. Turli leksemalarning xilma-xil semantik uyg'un yoki semantik nouyg'un) kombinatsiyalari frazeologizmlarni shakllantiradi va ularning tarkibida turli ma'noli leksemalar ishtirok etadi. Bu esa leksemalarning frazeologik kombinatsiyalar tarkibidagi o'rnnini aniqlashni taqozo etadi.

O'zbek tili frazeologizmlarining qaror topishida faol va nofaol leksemalar ishtirok etib, ular frazeologizmlar nafaqat shaklan, balki semantik qaror topishida asos bo'ladi.

Tilshunoslikda frazeologizmlar tarkibidagi leksemalar o'zining "xususiy ma'nolarini", "ma'no mustaqilligini", "leksemalik darajasini yo'qotadi", "xususiy ma'nosi kuchsizlanadi" kabi talqinlar mavjud. Jumladan, Sh. Rahmatullayev

¹ Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. – Toshkent: Fan, 1966. (B. 4.

frazeologizmlarda “komponentlar o‘zlarining xususiy ma’nolarini saqlab qolsa-da, ularni tayanch va notayanch a’zo sifatida talqin qilish zarur”¹ deb hisoblaydi.

Ko‘rinadiki, tilshunoslikda frazeologizmlar tarkibidagi so‘zlar leksik ma’nosini yo‘qotgan, so‘zdan tashqaridagi til hodisasi sifatida qaralsa, boshqa tilshunoslardan komponentlar o‘zlarining leksik xususiyatlarni saqlab qoladi, ammo bu turli frazeologizmlarda turlicha yuz beradi, deb e’tirof etadilar. Aksariyat tilshunoslardan leksemalar frazeologizmlar tarkibiga kirgandan keyin ham o‘zlarining leksik ma’nolarini saqlab qolishini e’tirof etadilar. Ammo ayrim frazeologizmlarda leksik ma’no to‘liq saqlanadi, boshqalarida esa leksik ma’no bir qadar kuchsizlanadi.

Demak, frazeologizmlar komponentlarini leksemalar deb hisoblash, ammo ularning qo‘llanish darajasi, muayyan iboraning shakllanishidagi rolini alohida o‘rganish lozim. Masalan, *og‘zidan gullamoq – nojo‘ya, noo‘rin gaplarni gapirmoq* iborasi tarkibidagi og‘iz komponenti semantik tayanch a’zo bo‘lsa, gullamoq komponenti esa grammatik tayanch komponentdir. Semantik tayanch a’zo fe’l leksema bilan birikib fe’l iborasini hosil qiladi. Komponentlarning leksik xususiyatlari ibora tarkibida qatnashgan komponentlar orasidagi sintaktik bog‘lanishni² ta’minlaydi. Mana shularni hisobga olib, biz BMIda frazeologik leksemalarni ajratish, frazeologizmlarni shakllantiruvchi leksemalarning ma’no xususiyatlarini tahlil etish kabi masalalarni o‘rganib chiqishni maqsad qilib oldik.

Frazeologizmlar tarkibidagi leksemalar turli so‘z turkumlariga tegishlidir. Izohli frazeologik lug‘atlar, ruscha-o‘zbekcha va o‘zbekcha-ruscha lug‘atlarda o‘z ifodasini topgan frazeologizmlar komponentlarining turli-tumanligi fikrimizni yaqqol tasdiqlaydi.

Ayrim leksemalar *daqyonusdan qolgan, almisoqdan qolgan, chuchvarani xom sanamoq, tarvuzi qo‘ltig‘idan tushdi* каби yagona ibora tarkibidagina ishtirok

¹ Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilida fe’l frazemalarning bog‘lashuvi. (Toshkent: Fan, 1986. – B. 6.

² Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati. – Toshkent: Fan, 1966. – B.8.

etsa, yurak, ko‘z, qulqoq, yuz, qo‘l kabi somatik, sichqon, tuya, it kabi zoonimik, tushmoq, o‘tmoq, tiqmoq kabi harakatni ifodalovchi leksemalar o‘ntadan yuztagacha va undan ortiq frazeologizmlar tarkibida komponent sifatida qatnashadi. Frazeologizmlar grammatik shakllanishida fe‘l komponent alohida o‘rin egallaydi.

O‘zbek tili frazeologizmlarining ko‘pi fe‘l leksemalar vositasida shakllanib, fe‘l grammatik tayanch komponent sifatida qatnashadi va o‘zbek tili frazeologizmlarining asosiy qismini fe‘l frazeologizmlar tashkil etadi. Frazeologizmlar tarkibidagi semantik tayanch komponentlar frazeologizmlar semantik tizimini shakllantiradi. Frazeologik faol komponentning shakllantirish ko‘lamli ot, fe‘l, sifat, ravish kabi leksik(grammatik to‘rt guruhga xos frazeologizmlar ifodaviy shakllanishida ko‘rinadi.

Leksemalarning xususiy ma’nosini frazeologizmlar semantikasini belgilaydi. Leksemalar ibora tarkibida o‘zining ma’nolarini yo‘qotishi yoki yangicha ma’nolarga ega bo‘lishi mumkin. Bu jarayonda komponentlarning o‘zaro aloqadorligi asosida komponentlarning ma’nolaridan ifodalangan ma’no yoki ularga bog‘liq bo‘lmagan frazemik ma’no ma’no hosil bo‘ladi.

Shakliy jihatdan frazeologizmlar so‘zlarning uyushmasi asosida shakllanganligi uchun ham iboraning ifoda plani deb leksemalar va ularni bog‘lash uchun xizmat qiladigan morfemalar ko‘zda tutiladi.

Frazeologizmlar shakllanishida leksemalar o‘zaro qanday bog‘lashuvga kirishishi ham muhim hisoblanadi. So‘zlarning boshqa so‘zlar bilan o‘ziga xos yo‘llar vositasida birikuvi natijasida turg‘un, obrazli, ekspressiv, yaxlit ma’noga ega bo‘lgan yangi ma’noli frazeologizmlar shakllanadi.

Frazeologizmlar ikki yoki undan ortiq mustaqil yoki yordamchi so‘z turkumlariga tegishli leksemalardan tashkil topadi. Ular mustaqil yoki yordamchi so‘z turkumlariga tegishli bo‘ladi. *Peshanasi sho‘r, adi-badi aytishmoq, podadan oldin chang chiqarmoq, so‘xtasi sovuq, boshi osmonga yetmoq* kabi bog‘lanmalar

u yoki bu leksemalarning o‘zaro sintaktik bog‘lanishi asosida yuzaga keladi. Frazeologizmlar ham bog‘lanmalardir, ammo frazeologizmlar ko‘chma ma’noli, obrazli, turg‘un bog‘lanmalardir. Shuning uchun ham turg‘un bog‘lanmalar ma’no xususiyatiga ko‘ra:

- 1) to‘g‘ri ma’noli turg‘un bog‘lanmalar;
- 2) ko‘chma ma’noli turg‘un bog‘lanmalar¹ga ajraladi.

To‘g‘ri ma’noli turg‘un bog‘lanmalar narsa-hodisalarning nomini atab, nominativ vazifani bajarsa, ko‘chma ma’noli turg‘un bog‘lanmalar nominativ vazifa bajarish bilan birga, narsa-hodisani obrazli ifodalab tasvirlaydi.

Frazeologizmlarni tashkil etgan leksemalarning o‘zaro grammatik va semantik bog‘lanish uyg‘un bo‘lishi kerak.

Bosh leksemasi frazemik faol bo‘lsa-da, har qanday leksema bilan bog‘lanib ketavermaydi. Tilimizda boshdan kechirmoq, boshini yemoq tarzida o‘zaro bog‘lanish mavjud bo‘lgani holda, "boshini ichmoq" tarzida bog‘lanish mavjud emas.

O‘zbek tili frazeologizmlarining komponent tarkibidagi faol leksemalarni aniqlash so‘zlarning bog‘lanish qonuniyatlarini oydinlashtirish imkoniyatini yaratadi.

O‘zbek tilshunosligida frazeologizmlar komponentlari ilk bor Sh.Rahmatullayev, A.Isayevlarning tadqiqotlarida ilmiy tahlil etilgan.

SH.Rahmatullayev ilmiy tadqiqotlarida komponentlarning frazeologizmlar ma’nosini shakllantirishdagi o‘rni masalasida fikr yuritib, komponentlar o‘zlarining so‘z sifatidagi ma’nolarini muayyan ma’noda yo‘qotishi va iboradan umumlashgan ma’no yuzaga chiqishini e’tirof etadi. Shu bilan birga komponentlarning frazeologizmlar shakllanishi va ma’no taraqqiyotiga sezilarli

¹ Tursunov U. va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili.- Toshket: O‘qituvchi, 1992. – B. 57.

ta'sir ko'rsatishini va frazeologizmlar avvalo semantik hodisa ekanligini ta'kidlaydi¹.

A.Isayev o'z tadqiqotlarida somatik leksemalarning frazeologizmlarni shakllantirishdagi o'rnini, xususan *ko'z, bosh, yuz, bet* kabi leksemalarning frazeologizmlarni shakllantirishda faol ekanligini ta'kidlaydi².

Ta'kidlash lozimki, mazkur tadqiqotlarda somatik leksemalarning frazeologizmlarni shakllantirishdagi o'rni va xususiyatini ilmiy tahlil qilishga emas, balki til materiallarini qayd qilishga ko'proq e'tibor qaratilgan. Tilimizdagi *qo'l, oyoq, yuz, bet, qulog, ko'z* kabi so'zlar inson tana a'zolarning birini ifodalashi bilan somatik leksemalar sanaladi. Ammo shu so'zlar ishtirokida *shakllangan ko'zini shamg'alat qilib, ko'z ochib yumguncha, boshini qovushtirmoq, tilini biriktirmoq* kabi frazeologizmlar insonning tana a'zolarini ifoda etmaydi. Shu bois ularni somatik frazeologizmlar deyish munozarali.

Frazeologizmlar insonning hayoti, turmush tarzi, faoliyati, jismoniy holatini ifodalash zaruriyati asnosida yaratilganligi sababli ham, ularning tarkibida ot so'z turkumiga oid so'zlarning ishtiroki o'ta faolligi bilan ajralib turadi.

Frazeologizmlar inson faoliyati va harakatini ifodalagani uchun ham, ular tarkibida fe'l so'z turkumiga oid leksemalar ko'pchilikni tashkil etadi. Shuningdek, fe'l leksemalar frazeologizmlar leksik(grammatik tabiatini belgilaydi.

Umuman, frazeologizmlar alohida shaklga ega bo'lgan, muayyan komponentlardan tashkil topgan, nutqda boshqa gap bo'laklari bilan munosabatga kirishadigan, grammatik ko'rsatkichga va grammatik shaklga ega bo'lgan til birligidir. Shu ma'noda frazeologizmlar o'z shakliga va paradigmatic shaklga ega bo'ladi. Shakliy va tarkibiy tuzilishini tashkil etadigan komponentlar tarkibi iboraning o'z shakli hisoblanadi. Frazeologizmlar shakli uning moddiy asosini

¹ Rahmatullayev Sh. Leksema va frazema ma'nosini komponent tahlilining ba'zi natijalari // O'zbek tili va adabiyoti. - 1986. - № 3. – B.16-21.

² Исаев А. Соматические фразеологизмы узбекского языка: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. - Ташкент, 1977. - 22 с.

tashkil etadi. Mazkur tadqiqot frazeologizmlar o‘z shaklini, uning xususiyatlarini, shaklini va ma’nosini tashkil etgan komponent tarkibini ilmiy tadqiq etishga bag‘ishlangan.

Frazeologizmlar leksemalar asosida shakllanish jarayonini tadqiq etish semantik tayanch a’zo frazeologik faol ekanligini ko‘rsatadi. Somatik leksemalar yordamida turli ma’nolarni anglatuvchi va turli leksik(grammatik) guruhlarga tegishli frazeologizmlar shakllangan.

Somatik leksemalarning frazeologik faolligini ularning inson faoliyatiga juda bog‘liqligi bilan izohlash mumkin. *Bosh, yurak, qo‘l, og‘iz, yuz, ko‘z* kabi somatik leksemalar inson faoliyati bilan aloqadorligi tufayli, ular ishtirokida fe’l, sifat, ravish, otga tegishli frazeologizmlar shakllanadi.

Somatik leksemalar yordamida, asosan, fe’l frazeologizmlar, *tirnoq, teri, o‘pka, bo‘yin, suyak* kabi somatik leksemalar vositasida faqat fe’l va ravish frazeologizmlar shakllanadi. Sifat va ot frazeologizmlar esa shakllanmaydi. Frazeologizmlar nominativlik vazifasidan ko‘ra tasviriylik vazifasi ustun ekanligi uchun ham o‘zbek tilida ot frazeologizmlar kam shakllanadi.

Frazeologizmlar ijtimoiy(tarixiy davrning mahsuli hisoblanadi. Shuning uchun frazeologizmlar paydo bo‘lishi va shakllanishi uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Shu ma’noda ularni tarixiylik jihatdan o‘rganish ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Dastlab frazeologizmlar tarkibidagi komponentlar o‘zbek tili leksikasining o‘z mulkidan iborat bo‘lgan. Davrlar o‘tishi bilan tilimizga fors(tojik, arab, rus va yevropa tillaridan ko‘plab baynalmilal leksemalar o‘zlashdiki, ular iste’moldagi frazeologizmlar tarkibida o‘z aksini topdi. Shuning uchun ham frazeologizmlar komponent tarkibi rang-barang: ular turli so‘z turkumiga oid va turli o‘zlashgan qatlam so‘zlaridan iborat. Frazemik tarkib ham leksika kabi rivojlanish, boyish, o‘zgarish jarayonida tilning ichki qonuniyatlariga amal qiladi.

Frazeologizmlar hosil bo‘lishi va shakllanishi leksika bilan bog‘liq bo‘lib, leksika qay darajada so‘zlar bilan boyib borsa, ular frazeologizmlar tarkibida o‘z aksini topib boradi. Frazeologizmlar shakllanishining moddiy asosi so‘zlardir. Frazeologizmlar so‘zlarning shakllangan uyushmasi bo‘lib, ular turg‘un so‘z birikmalaridir. A

mmo frazeologizmlar o‘ziga xos hosil bo‘lishi va shakllanish jarayonlari ularni so‘z birikmalaridan farqlaydi. Frazeologizmlar tarixiy jarayonlar, ijtimoiy muhit, ijtimoiy(siyosiy, ma’naviy hayot kabi ekstralengvistik omillar, tilning semantik, grammatik qonun-qoidalari kabi lingvistik omillar bilan uzviy aloqadorlikda paydo buladi va leksika kabi tilning ichki qonuniyatlariga, grammatik xususiyatlariga ega bo‘ladi.

Jamiyatda paydo bo‘ladigan narsa-hodisalar uchun tilda maxsus atamalar bo‘lishi kabi, obyektiv sabablar asosida tilda yangi-yangi so‘z (leksema)lar, frazeologizmlar paydo bo‘ladi, adabiy tilning lug‘at tarkibi boyib boradi. Til vakillarining u yoki bu hodisa, holat, xarakterlarni obrazli ifodalash ehtiyoji tufayli tilda ko‘plab turli ma’noli frazeologizmlar yuzaga keladi.

Shuningdek, muayyan bir joyning tabiatи, xalqning iqtisodiy tuzumi, tarixi, madaniyati, hayot tarzi, og‘zaki ijodiyoti, badiiy adabiyoti, san’ati, fani, urf-odati kabilarni aks ettirish ehtiyoji ham frazeologizmlar paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi va avloddan avlodga o‘tib boradi. Frazeologizmlarni o‘rganishda ularni o‘zbek va boshqa tillar frazeologizmlari bilan qiyosiy o‘rganish ham maqsadga muvofiq ko‘rinadi. N.Turopovaning “Yapon va o‘zbek tillaridagi frazeologizmlarni qiyosiy o‘rganish” nomli ilmiy maqolasida shunday fikrlar ilgari surilgan. Frazeologik iboralar nutqning ta’sirchanligini, emotsiyon – ekspressivligini ta’minlovchi asosiy vosita sifatida nutqimiz ko‘rki hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan yapon tili frazeologizmlarining xususiyatlarini o‘rganib, ularni o‘zbek tilida ifodalash usullarini tahlil qilish maqsadga muvofiq. Har ikkala tildagi frazeologizmlarni qiyosiy o‘rganishda ularning mazmun jihatdan bir - biriga mos

kelishi yoki qisman mos kelishi, o‘xshashligiga hamda bir tilda mavjud bo‘lgan frazeologizmlarning ikkinchi tilda na ekvivalentiga, na variantiga egaligiga e’tiborni qaratish lozim. N.Turopova frazeologizmlarni quyidagicha guruhlarga bo‘lib o‘rganishni tavsiya etadi.¹

1. Har ikki tilda mavjud bo‘lgan ekvivalent frazeologizmlar. Ular mazmun, shakl, ekspressiv-stilistik xususiyatlarni saqlagan bo‘lishi lozim.

2. Har ikki tilda o‘zaro o‘xshash bo‘lgan frazeologizmlar. Ular mazmun jihatdan o‘xshash stilistik xususiyatlarni o‘zida saqlagan, lekin obrazli asosi turlicha bo‘lgan frazeologik variantlardir.

3. Mazmuni kontekst orqali aniqlanadigan, milliy urf-odatni ifodalovchi frazeologizmlar.

Frazeologik ekvivalent tanlashda tarjimon albatta kontekstda anglatgan mazmunga e’tibor berishi lozim, aks holda, tanlangan ekvivalent matnda ifodalangan mazmunga to‘g‘ri kelmay, fikriy g‘alizliklarni keltirib chiqaradi. Olimlarning ta’kidlashlaricha, tarjima jarayonida bir tilga xos bo‘lgan grammatik vositalarni albatta ikkinchi tilda grammatik vositalar orqali berish shart emas. Bunday hollarda tarjimada vaziyat yo kontekstga alohida e’tibor qaratish lozim. Asosiysi, tarjimada so‘zlar kabi frazeologizmlarning anglatgan ma’nosini, emotsiyal – ekspressiv va stilistik xususiyatlarini saqlagan holda shakliy xususiyatlarini ham aks ettirish zarur. Maqol kundalik hayotda kishilarning bir-birlari bilan muomalada bo‘lishi jarayonida tug‘iladi. Idioma – shaklan bo‘laklarga ajralmaydigan, maxraji birikma tarkibidagi so‘zlarning to‘g‘ri va konkret ma’nosini bilan talqin qilinmaydigan, ko‘chma ma’no anglatuvchi barqaror so‘z birikmasidir. “Idioma” (yunoncha o‘ziga xos ifoda, ibora)-frazeologik chatishmadir².

¹ Туропова Н. Япон ва ўзбек тилларидағи фразеологизмларни қиёсий ўрганиш// ЎТА,2010,3 сон 71-73-бет.

² Ҳожиев А. Ўзбек тилининг лингвистик лугати.- Т.: 2002. 14-бет.

Frazeologik chatishma –ma’nosi tarkibidagi so‘zlarning ma’nosidan kelib chiqmaydigan frazeologik birliklar¹. Masalan, “oyoqni qo‘lga olmoq” (yugurmoq).

O‘tgan asrning 60-70-yillaridan boshlab o‘zbek frazeologiyasini o‘rganish ishi quyidagi ikki asosiy yo‘nalishda rivojlandi:

a) o‘zbek tili frazeologik birliklarining ayrim struktural tiplari maxsus o‘rganila boshladi;

b) frazeologik birliklarning badiiy uslubiy xususuyatlari o‘rganildi.

Frazeologik birliklarning ibora – tasvir vositalari tizimida turgan o‘rnini tadqiq qilish davom ettirildi. Bunday yo‘nalishdagi tadqiqotlarda asosan yangi ilmiy soha – frazeologiyaning ko‘pgina oziga xos muammolari o‘rganildi va o‘zbek adabiy tilining frazeologik tarkibi yangi frazeologik birliklar tahlili hisobiga boyib bordi. Bundan keyingi davrda o‘zbek frazeologiyasining yana bir boshqa yo‘nalishda o‘rganish sohasida ham salmoqli natijalarga erishildi, ya’ni XX asr o‘zbek yozuvchilari, shoirlari asarlarining tili va uslubiga oid ko‘pgina ishlarda, nomzodlik dissertatsiyalarda, ilmiy maqolalarda frazemaning uslubiy vazifalarini o‘rganishga alohida ahamiyat berildi. Bu jihatdan Hamza (B.Turdialihev, Sh.Qozoqov), A.Qodiriy (H.Qahhorova, F.Nasriddinov), A.Qahhor (I.Qo‘chqortoyev, O.Abdullayeva) H.Olimjon (S.Boboyeva), Zulfiya (S.Karimov) S.Ahmad (B.Yo‘ldoshev) kabi so‘z san’atkorlarining asarlarida qo‘llanilgan frazemalar tahliliga oid ishlar diqqatga sazovordir. Masalan, I.Qo‘chqortoyevning “Abdulla Qahhorning umumtil frazeologiyasi asosida yangi iboralar yaratishiga doir” maqolasida quyidagi fikrlar ilgari surilgan. Mavjud frazeologik birliklar asosida yangi iboralar yaratish umumtilda, ayniqsa badiiy adabiyot tilida ko‘p uchraydigan hodisadir. Yozuvchining frazeologik novatorligi, frazeologik ijodkorligi eng yorqin namoyon bo‘ladigan soha ham mana shu umumtil frazeologiyasi asosida yangi iboralar yaratish sohasidir. A.Qahhor ba’zan aforizm va xalq iboralari darajasiga ko‘tarilgan chuqur mazmunli, o‘tkir

¹ Ўша асап, 51- бет.

kinoyali iboralar to‘qiydi. Bu iboralarni ko‘p hollarda xalq iboralaridan ajratish qiyindir. Bu maqolada A.Qahhor tomonidan xalq frazeologiyasi zamiridagi obrazlar asosida ijod qilingan individual frazeologik neologizmlardan namunalar keltiriladi. Frazeologik birliklarning muhim belgilaridan biri shundan iboratki, ular zamirida ma’lum obraz, konkret hodisa, harakat yoki predmet tasavvuri yotadi. Masalan, “quvonmoq” ma’nosini ifodalaydigan “og‘zi qulog‘iga yetdi” iborasida kulish, mamnun bo‘lish orqasida og‘izning quloqqacha yetishi tasavvuri, obrazi bor. Ibora zamiridagi mana shu obraz “quvonmoq” ma’nosini bildirish uchun xizmat qiladi. Ibora zamiridagi bunday obrazni boshqa nuqtayi nazardan izohlash, uni boshqacha talqin etish tilda yangi yaratilgan frazeologik neologizmda umumtil iborasiga mansub bo‘lgan obraz yoki bu obrazning biror xususiyati saqlanadi. A.Qahhor shu yo‘l bilan yangi iboralar yaratishda umumtil frazeologiyalaridan ham, majoziy ma’noli maqollardan ham foydalanadi. A.Qahhor tomonidan yaratilgan yangi iboralarni sinchiklab o‘rganish, ularning semantik-stilistik funksiyalarini tekshirish A.Qahhor uslubining o‘ziga xos xususiyatlarini ochish uning o‘zbek adabiy tili taraqqiyotiga qo‘sghan hissasini aniqlashga yordam beradi.

O‘zbek tilshunosligida o‘tgan asrning 70-80 yillaridan boshlab lingvistik model va modellashtirish usullaridan keng foydalanish boshlandi.¹ Frazeologik birliklar ham muayyan shakli, strukturaga ega bo‘lishi bilan birga, ma’lum semantikaga ham ega. Shu bilan birga frazeologizmlar shakl va mazmun munosabatida ham bo‘ladi. Frazeologiya mustaqil fan bo‘lib shakllanishi va ajralib chiqqanidan buyon o‘tgan nisbatan qisqa vaqt ichida frazeologik birliklar turli jihatlardan o‘rganildi. Frazeolgik birliklarga morfologik nuqtayi nazaridan ham yondashiladi, ya’ni ularning u yoki bu frazeologik grammatik turkumlarga mansubligi belgilanadi. Frazeologik birliklarning shakli bilan ma’nosi orasidagi izomorfik (moslik,parallelilik) darajasini aniqlash maqsad qilib qo‘yildi.

¹Фаниева Ш.Фразеологизмларни моделлаштириш муаммолари// ЎТА,6 сон,111-112-бетлар.

Keyingiyillarda frazeologizmlary uza sidanko ‘plabilmiy monografikaslar, ilmiy maqolalar nashretildi. Shunday ishlardan biri B.Yo‘ldoshevning “Frazeologizmlarning adabiy til normasiga munosabatiga doir” nomli maqolasidir. Til jamiyatda eng muhim aloqa vositasi bo‘lishi, o‘z vazifalarini oqilona bajarishi uchun, avvalo, normalashgan bo‘lishi kerak, chunki normativlik xususiyati milliy adabiy tilning markaziy va eng muhim belgisidir.

1.2. Ot komponentli frazeologizmlar semantik xususiyatlari

Ot komponentli frazeologizmlarda ibora tarkibidagi komponentlaridan ot tayanch bo‘lib, iboraning obrazli asosini tashkil etadi. Bu komponent iboraning boshqa bo‘laklar bilan sintaktik munosabatini ham belgilaydi. Masalan, *yumshoq supurgi, suyangan tog‘i, peshana teri, anqonning tuxumi* kabi frazeologizmlar tarkibidagi *cynypzu, tog‘, ter, tuxum* komponentlari iboraning ma’noviy shakllanishida tayanch komponent bo‘lgan.

Barcha frazeologizmlar kabi ot komponentli frazeologizmlar ham o‘zbek xalqining ijtimoiy(iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy, madaniy hayoti, o‘ziga xos tushunchalari asosida yuzaga keladi. O‘zbek xalqining milliy bosh-kiyimi do‘ppi leksemasi bir qancha shaxs holatini ifodalovchi frazeologizmlar tarkibida ishlatilgan.

Do‘ppi leksemasi *do‘ppisini osmonga otmoq, do‘ppisini yerga qo‘yib o‘ylamoq, do‘ppining tagida odam bor, do‘ppisini yarimta qilib, do‘ppisi tor kelmoq, do‘ppisi chakkada, do‘ppisi chambarak, do‘ppisini teskari kiydirmoq* kabi turli ma’noli frazeologizmlar tarkibida tayanch komponent sifatida keladi. Bu kabi frazeologizmlar milliyligi shundaki, ular milliy tushunchalar va predmetlar bilan bog‘lanib, frazeologizmlarni tashkil etgan leksemalar o‘zbekchadir.

Oshig‘i olchi (bo‘lmoq) iborasi ham o‘zining milliy xarakterga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Ma’lumki, xalqimiz azaldan oshiq o‘yinini o‘ynab keladi.

Oshiqning bosh ma’nosi "Ayrim hayvonlarning orqa oyog‘i tizza bo‘g‘imidagi biriktiruvchi chorqirra suyakcha" (O‘TIL, 555(bet) bo‘lib, u qo‘y oshig‘i vositasida o‘ynaladigan o‘yining nomini ham ifodalaydi. O‘yin davomida oshiq yassi tomoni bilan turib qolsa, uni otgan kishi olchi deb tan olinadi. Olchi o‘rtaga qo‘yilgan sovrinni oladi. Demak, olchi "ishi yurishgan", "muvaffaqiyat qozongan" ma’nolarini bildiradi. Shu tushuncha asosida "ishi yurishgan kishilar" ma’nosi oshig‘i olchi iborasi bilan ifodalanadi.

O‘zbek tilida ot komponetli frazeologizmlar shaxsning faoliyati, uning sifatiy ko‘rinishlari, psixik holati, kechinmalar, intellektual qobiliyati, emotsiyasini ifoda etadi. Bu frazeologizmlarda shaxsning u yoki bu holatini ifodalovchi leksema ishtirok etganligi sababli, ularni shaxs komponentli frazeologizmlar deb atadik. Shaxs komponentli frazeologizmlarni leksik-semantik tavsiflash, tahlil etish bo‘yicha tadqiqotlar olib borilsa-da, ularning strukturasi, komponentlarining xususiyatlari tahlil etilmagan.

O‘zbek tilshunosligida emotsional-ekspressiv frazeologizmlarni o‘rganish, ularni ma’lum guruhlarga ajratish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar¹ olib borilmoqda. Tadqiqotlarda asosan, frazeologizmlarga emotsionallik va ekspressivlik nuqtai nazaridan yondashilib, ular faqat semantik jihatdan izohlanadi.

Kuzatishlar frazeologizmlar strukturasi, komponentlarining shakllanishdagi hissasi va roli xususiyatlari alohida tadqiq etilishi zarurligini ko‘rsatadi. O‘zbek tili lug‘aviy tarkibining aksariyati shaxs faoliyati bilan bog‘liq frazeologizmlarni tashkil etadi.

Shaxsning holati asosida shakllangan frazeologizmlar. Shaxsning faoliyati, psixologik holati, sifat ko‘rinishi juda keng va ko‘lamli bo‘lib, ularning qirralari, variantlari turli(tuman va cheksizdir. Shuning uchun ham tilda psixik jarayonlarni ifodalash uchun maxsus leksemalar va birikmalar mavjud bo‘lib, ular frazeologizmlar tarkibida ishtirok etadi.

¹ Mamatov A. Frazeologik stilistika masalalari. - Toshkent, 1991. – B. 37-69.

Shaxsning quvonish, g‘azablanish, ajablanish, tashvishlanish, azoblanish, o‘kinish, qo‘rquv, qahrlanish, nafratlanish, hurmatsizlik, uyalish, andisha, jahl kabi holatlarni ifodalash maqsadida tilda turli strukturali frazeologizmlar shakllangan. Shaxs faoliyati va psixikasini ifodalovchi frazeologizmlar komponent tarkibida asosan ruhiy holatni ifodalovchi ko‘ngil, es, ruh, sevinch, dimog‘, jon, kayf kabi (mavhum) abstrakt leksemalar ishtirok etadi.

Shaxsning vajohatini ifodalovchi **abjag‘i chiqmoq**, **iyig‘i chiqmoq**, **dabdalasi chiqmoq** kabi ma’nodosh frazeologizmlar shaxsning tashqi holatini ifoda etsa, **asabi taranglashmok**, **asabiga tegmoq**, **g‘ashiga tegmoq**, **jiniga tegmoq**, **g‘ashi kelmoq**, **g‘ashini keltirmoq** kabi ma’nodosh frazeologizmlar g‘azablanish ottenkasini ifodalaydi.

Vasvasaga tushmoq iborasi turli o‘y-xayollarga borib qattiq hayajonlanmoq ma’nosi bilan shaxsning vajohat holatini ifodalaydi.

Do‘q urmoq iborasi qo‘rqtish maqsadida baqirib- chaqirib gapirmoq ma’nosi bilan shaxsning salbiy emotSIONAL holatini ifoda etishi bilan xarakterlidir.

Jig‘iga tegmoq, jig‘ini ezmoq, jig‘ibiyroni chiqdi, joniga tegmoq kabi frazeologizmlar umumiy ma’nolari bilan shaxsning asablanishi bilan bog‘liq holatini ifoda etadi.

Jini qo‘zidi iborasi esa g‘azablanish ottenkasi bilan shaxsning salbiy holatini ifoda etadi.

Taajjubga solmoq, ta’bi xira bo‘ldi, tabiatи tirriq bo‘ldi, ta’bi tirriq bo‘ldi, tabiatи xira, ta’bi xira, tabiatи xira bo‘ldi, ta’bi xira bo‘ldi kabi ma’nodosh frazeologizmlar ma’no tarkibida xafalik, ajablanish ottenkalari ustun turadi.

Tit(pitini chiqarmoq, g‘azabga kelmoq, achchig‘i kelmoq, achchig‘i qistamoq, qoni qaynamoq, g‘azabi qaynamoq, joni chiqmoq, joni halqumiga kelmoq kabi frazeologizmlar achchiqlanmoq, darg‘azab bo‘lmoq, nihoyatda qattiq g‘azablanmoq kabi ma’no ottenkalari bilan umumiy ma’noga birlashadi.

Quyidagi frazeologizmlar esa ruhiy g‘amginlik, xafalikni ifodalaydi: *ko‘ngli bir xil bo‘lib ketmoq, ko‘ngli vayron bo‘lmoq, ko‘ngliga sig‘maslik, ko‘ngliga g‘ashlik solmoq, ko‘ngliga g‘ashlik tushmoq, ko‘ngli zim-ziyo, ko‘nglini buzmoq, ko‘nglini g‘ashlamoq, ko‘ngli og‘rimoq, ko‘ngli sinmoq, ko‘ngli sovimoq, ko‘ngli xijil bo‘lmoq, ko‘ngli xira, ko‘ngli xira bo‘lmoq, ko‘ngli cho‘kmoq, ko‘ngli yarimta, ko‘ngli o‘ksimoq, ko‘ngli qolmoq va b.*

Dimog‘ leksemasi shaxsning dimog‘dorlik xarakteri bilan bog‘langan salbiy ma’noli *dimog‘i baland, dimog‘iga qurt tushdi, dimog‘idan eshak qurti yog‘iladi, dimog‘ida osh pishadi, dimog‘i shishdi* kabi; yaxshi kayfiyat holatini ifodalovchi *dimog‘i chog‘, dimog‘i chog‘ bo‘lmoq, dimog‘ini choq qilmoq* singari frazeologizmlar tarkibida tayanch komponent sifatida qo‘llaniladi.

Shaxsning g‘azablanish holatini ifodalovchi *jahli burnining uchida turadi. jahli tez, jahli chiqdi, jahlini chiqarmoq, jahl ustida* kabi frazeologizmlar tarkibida jahl leksemasining ishtiroki kuzatiladi.

Kayf mavhum leksemasi ruhiy holat va kayfiyatni ifodalovchi *kayfi baland, kayfi buzuq, kayfi joyida, kayfi chog‘, kayf xush* kabi sifat frazeologizmlar; *kayfini buzmoq, kayfi buzilmoq, kayfini joyiga keltirmoq, kayfini surmoq, kayfi oshmoq, kayfi uchmoq, kayfini uchirmoq, kayfi chog‘ bo‘lmoq, kayfichog‘lik qilmoq* kabi fe’l frazeologizmlar tarkibida tayanch a’zo sifatida qatnashib, ular yozma va og‘zaki nutqda faol qo‘llanadi.

Ruh leksemasi yordamida tetiklik, birdamlik, yaxshi kayfiyatni ifodalovchi **ruhi yengil, ruhi baland** kabi sifat frazeologizmlar; *ruhini yengil sezmoq, ruhi yengil tortmoq, ruhini ko‘tarmoq, ruhi tushmoq* singari fe’l frazeologizmlar paydo bo‘lgan va nutqda keng qo‘llanishi bilan ahamiyatlidir.

Ta’b leksemasi kayfiyatning yaxshi yoki yomonligini ifodalovchi **ta’bi olindi, ta’bi ochildi, ta’bini ochib yubormoq, ta’bini tirriq qilmoq, ta’bi tortdi, ta’bini xira qilmoq, ta’bi xiralashdi** kabi fe’l frazeologizmlar; *ta’bi*

tirriq, ta'bi xira, ta'bi nomozshom kabi sifat frazeologizmlar tarkibida ishtirok etadi.

Leksemalarning mantiqiy asosiga ko‘ra shaxsning fikrlash holati, idrok qilish kabi psixik jarayonlarni ifodalovchi frazeologizmlar shakllanadi.

Xayol leksemasi ibora tarkibida semantik tayanch a’zo sifatida qatnashib, fe’l leksemasi bilan birikadi. Fe’l a’zo o‘timli sememasida ishtirok etib, tushum kelishigidagi leksemalar bilan birikadi: **xayolini buzmoq, xayolini bo‘lmoq, xayolini olib qochmoq, xayolini olmoq, xayolini sochmoq, xayol surmoq;** fe’l a’zo o‘timsiz sememasida qatnashib, xayol leksemasi jo‘nalish kelishigida shakllanadi: **xayolga bormoq, xayolga tolmoq, xayolga cho‘mmoq, xayol daryosiga cho‘mmoq, xayolga botmoq, xayolga kelmoq.** **Xayol** leksemasi chiqish kelishigida shakllanadi: **xayolidan o‘tmoq, xayolidan o‘tkazmoq.**

Ko‘rinadiki, shaxs faoliyati va psixikasi bilan bog‘liq frazeologizmlar tarkibida kamida bitta mavhum leksema semantik tayanch a’zo bo‘lib ishtirok etishi va bu leksemalar shakllangan ibora uchun mantiqiy asos bo‘lib xizmat qilishi kuzatiladi.

Qayd etilgan frazeo(semantik guruhlarda shaxs faoliyati va psixikasining ayrim qirralarigina tadqiq etildi. Shaxs faoliyati va psixikasining boshqa qirralarining tahlili alohida mavzu sifatida o‘rganilishi maqsadga muvofiq.

Hayvonlar timsoli inson nazdida aksariyat hollarda salbiylikni anglatgani uchun ham ularni simvollashtirish asosida asosan salbiy ma’noli frazeologizmlar shakllanadi. Shuning uchun ham so‘kish, qarg‘ishni ifodalovchi so‘z va so‘z birikmalari tarkibida hayvonlar nomini ifodalovchi so‘zlar uchraydi.

Uy hayvonlari nomlarini ifodalovchi leksemalar frazeologizmlar komponenti bo‘ladi. Uy hayvonlari nomlarining frazeologik faolligi shundaki, ular inson bilan birgalikda hayot kechiradi. Uy hayvonlarining inson bilan yaqinlik tomonlari ko‘p. It sodiqlik, vafodorlik timsoli hisoblanadi. Ayni shu obraz asosida o‘zbek tilida qator frazeologizmlar shakllangan.

Itday vafodor bo‘lmoq iborasining shakllanishida itning insonga bo‘lgan vafodorlik xususiyati asosga olinadi. Itga xos bo‘lgan bu xususiyat insonga nisbatan qo‘llanadi va birikma komponentlarining ko‘chma ma’nosidan frazeologik ma’no yuzaga keladi.

Itning kunini ko‘rmoq, itning kunini solmoq, itning kunini boshiga solmoq frazeologizmlari itning ayanchli yashash tarzini inson holatiga qiyoslash asosida paydo bo‘lib, og‘ir ahvolga tushgan, juda ko‘p qiyinchiliklarga uchragan kishi holati ifodalanadi. Bu frazeologizmlarda juda og‘ir mashaqqatli, tahqirlashlarni boshidan kechirishga olib keladigan salbiy ishlarni amalgalashiradigan shaxs xarakteri ifodalanadi. ... *bo‘lmag‘ur gaplar bilan ranjitgani uchun it kunini boshiga solgan, mahallani boshiga ko‘tarib, Alining o‘yinini ko‘rsatib kelgan edi. (Mirmuhsin)*

It azobida iborasi o‘ta qynalgan shaxsning holatini ifoda etadi: ... *tayinli bir ishora bo‘lмаганидан keyin Huriniso vinoni ichdi, lekin it azobida edi.* (A.Qahhor)

Xulq-atvori yoqimsiz, sovuq, muomalasi dag‘al shaxsning xarakterini ifodalash uchun **it fe’l** iborasi keng qo‘llaniladi: *Halitdan it fe’lingni oshkor qilmoqchimisan? (Oybek)*

Itdan bir suyak qarz bo‘lib yashamoq iborasi esa o‘ta kambag‘al kishining qiyin ahvolini, yashash tarzini obrazli ifodalaydi.

Itdan olib, itga solmoq iborasi shaxsning so‘kish so‘zlarini ishlatgan holda tahqirlamoq ma’nosini ifodalaydi: *Anov kuni gadolarini yig‘ib, yana seni itdan olib, itga solibdi. (A.Muxtor)*

Ichini it tirnadi, ichini it tataladi kabi frazeologizmlar shaxsning ichki kechinmalarini, tashvishli holatini ifodalaydi.

Itga bersang oshingni, itlar g‘ajir boshingni iborasi it leksemasining birovning manfaatlarini himoya qilib, boshqalarga zulm o‘tkazuvchi odam, malay,

yaxshilikni ravo ko‘rmaydigan, inson mehnatini qadrlamaydigan shaxs faoliyati obrazli ifodalanadi.

Ot insonning kundalik hayoti faoliyatida, uy-ro‘zg‘orida, har xil yumushlarni bajarishida ulov vazifasini bajaradi. Otning inson hayoti tarzi bilan bunday yaqinligi qator frazeologizmlar hosil bo‘lishiga sabab bo‘lgan. *Oyog‘i uzangida bo‘lmoq, oziqlik ot qarimaydi, otning qashqasiday, otni qamchilamoq, ot solmoq, ot qo‘ymoq, ot bilan tuyacha, toy mingan ot ham minadi* kabi nutqda ko‘p ishlatilishi bilan xarakterlidir.

Otdan tushsa ham uzangidan tushmaslik yoki otdan tushsa ham egardan tushmaslik kabi frazeologizmlar bo‘lar-bo‘lmasga bahslashaveradigan, mantiqsiz, o‘zining fikrini ma’qul qilishga harakat qiladigan shaxslarning xarakterini ifodalaydi.

Otdan tushsa ham egardan tushmaslik - mavqeini yo‘qotganiga qaramay, o‘zini avvalgiday tutmoq iborasining **Otdan tushsa ham uzangidan tushmaslik** yoki **Egardan tushmaslik** kabi variantlari nutqda ko‘p ishlatilishi bilan xarakterlidir. Masalan:

Otdan tushsa ham egardan tushmay, o‘zini bir xil tutdi. (Said Ahmad) Ko‘rdingizmi, Davronov otdan tushsa ham, uzangidan tushgani yo‘q. (I.Rahim)

Mushuk leksemasi ham frazeologizmlarni shakllantirishda o‘ziga xos o‘rinni egallaydi. Birikmaga teng **mushugini pisht demaslik, hech qanday ozor yetkazmaslik** ma’noli fe’l iborasi hamda **mushugini pisht deb bo‘ladimi, mushugini pisht desa** kabi variantlar mushuk leksemasining semantik asosiga qurilgan.

Ichini mushuk tatalayapti, ichini ola mushuk tirnayapti, ichiga mushuk yutmoq kabi frazeologizmlar tarkibida mushuk leksemasi semantik notayanch leksema sifatida ishtirok etadi.

Buzoq leksemasi ishtirokida esa nutqda ko‘p qo‘llaniladigan *ammamning buzog‘i, ammamning buzog‘iday, buzoqning yugurgani somonxonagacha,*

buzoqning haqqi, nomaql buzoqning go'shtini yebdi kabi frazeologizmlar shakllanadi.

Qo'y leksemasi bilan ham nutqda qo'llanish darjasи yuqori bo'lgan *qo'yi mingga yetdi, qo'y og'zidan cho'p olmagan, qo'ydek yuvosh* kabi frazeologizmlar shakllanadi. Bunda qo'yning xislatlari frazeologizmlar uchun mantiqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Tuya leksemasi *tuya ko'rdingmi-yo'q, biya ko'rdingmi - yo'q, ot bilan tuyacha, ignadek ...ni tuyaday qilmoq, oq tuya ko'rdingmi - yo'q, ko'k tuya ko'rdingmi - yo'q, nonini tuya qilmoq, tuya qilmoq, hayt degan tuyaga darmon, tuyaning ustiga it qopmoq, tuyaning dumi yerga tekkanda* frazeologizmlari tarkibida semantik tayanch a'zo sifatida qatnashadi.

Eshak leksemasi semantik notayanch a'zo sifatida *ish bitguncha, eshak loydan o'tguncha, ish bitib eshak loydan o'tgandan keyin, ish bitdi, eshagi loydan o'tdi* kabi frazeologizmlar tarkibida qatnashadi.

Yovvoyi hayvonlarning nomlarini ifodalovchi leksemalar frazeologizmlar komponentlari bo'ladi. Yovvoyi yoki yirtqich hayvon nomlarini ifodalovchi leksemalarni simvollashtirish hisobiga salbiy ma'no ifodalovchi frazeologizmlar shakllanadi.

Ilonning salbiy belgi-xususiyatlari asosida **yerning tagida ilon qimirlasa bilmoq** iborasi shakllanib, o'ta sezgir kishilar xarakterini ifodalaydi. *Ilon yog'i yegan, ilonning yog'ini yalagan, ilon po'st tashlaydi, ilonning oyog'ini sanagan, ilonday avramoq* kabi frazeologizmlar shakllanishida ayni shu belgi - xususiyatlar mantiqiy asos bo'lib xizmat qilgan va ilon leksemasi semantik tayanch a'zo bo'lib keladi.

Tulkining ayyorlik xislatlari ramziy belgisi asosida *tulkilik qilmoq, tulkiday ayyor* kabi frazeologizmlar shakllangan bo'lsa, arslonning kuchlilik, qo'rqmaslik xislatlari ramziy belgisi asosida *yigit so'zidan, arslon izidan qaytmas, arslonning o'ligi - sichqonning tirigi* kabi frazeologizmlar hosil qilingan.

Qushlar nomlarini ifodalovchi leksemalar frazeologizmlar nafaqat obrazliligini, eng muhimi, ularning shakllanishini ta'minlaydi: *qushday yengil tortmoq* (*varianti: qush kabi yengil tortmoq*) iborasi tarkibida qush leksemasi semantik tayanch a'zo, *bir kesak bilan ikki qushni urmoq, bir o 'q bilan ikki qushni urmoq* frazeologizmlarida esa semantik notayanch a'zo sifatida ishtirok etadi.

Pashshadan fil yasamoq, pashshani fil qilmoq, pashshasini fil qilmoq kabi frazeologizmlar tarkibida fil leksemasi semantik notayanch a'zo sifatida ishtirok etadi.

Qarg'a leksemasi ishtirokida *qarg'a qarg'aning ko 'zini cho 'qimaydi, bir kesak bilan ikki qarg'ani urmoq* kabi frazeologizmlar shakllangan.

Shunday qilib, hayvonlar nomlarini ifodalovchi leksemalarning frazemik faolligi yuqori bo'lmasa-da, ularning nutqda qo'llanish darajasi ancha baland ekanligini qayd etish lozim.

O'zbek tilida hayvonot olamini ifodalovchi leksemalar aksariyat hollarda salbiy ma'noli frazeologizmlar shakllanishida komponent sifatida ishtirok etadi. Bunday frazeologizmlar nutqning obrazliligini, uning ta'sir qiluvchanlik xususiyatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Leksemalar va erkin bog'lanmalar frazeologizmlar shakllanishi uchun mantiqiy asos bo'lib xizmat qiladi. Yuqorida erkin bog'lanmalar frazeologizmlar mantiqiy asosi ekanligi haqida fikr bildirildi. Ushbu bo'limda leksemalar asosida frazeologik shakllanish xususida fikr yuritiladi.

O'zbek tilida ko'pgina leksemalar frazeologizmlar shakllanishi uchun mantiqiy asos rolini o'ynaydi. E'tibor qilaylik: *janjallashmoq* (*janjal ko 'tarmoq, kinnalamoq* (*kinna kirmoq, ildizlanmoq* (*ildiz otmoq, kuchlanmoq* (*kuchga kirmoq, oziqlantirmoq* (*oziq bermoq, ozorlanmoq* (*ozor yemoq, ruhlanmoq* (*ruhi ko 'tarilmoq, salomlashmoq* (*salom bermoq, suqlanmoq* (*suqi kirmoq, so 'zlamoq* (*so 'z olmoq, tenglashmoq* (*teng kelmoq* va b.

Alovida ta'kidlash lozimki, bu kabi leksemalar frazeologizmlar shakllanishi uchun faqat mantiqiy asos bo'la oladi. Chunki leksemalar ishtirokida shakllangan frazeologizmlar o'rtasida o'zaro semantik munosabat saqlanadi, shu bilan birga, leksemaning ham, iboraning ham mazmun planini shakllantiruvchi leksema yo'qolmaydi, uning shakli o'zgarib, o'sha leksemaning asosi mazmunan hukmron bo'lib qolaveradi.

Tishlamoq (**tishlab olmoq, uxlamoq** (**uyquga ketmoq, fikrlamoq** (**fikr yuritmoq** kabi frazeologizmlar shakllanish xususiyatlari fikrimizni tasdiqlay oladi.

Bot-bot ishlatib kelinayotgan *toblanmoq* (*tobiga yetkazmoq, toqatsizlanmoq* (*toqati toq bo'lmoq, uzmoq* (*uzib olmoq, umidsizlanmoq* (*umidsizlikka tushmoq, foydalanmoq* (*foyda ko'rmoq, xavotirlanmoq* (*xavotir olmoq, shubhalanmoq - shubhaga tushmoq, eslamoq - esiga kelmoq, o'nglamoq- o'ngidan kelmoq, o'rinlatmoq - o'rniga keltirmoq, qoralamoq - qoraga olib qo'ymoq, quchoqlamoq - quchoq ochmoq, qo'ltiqqlamoq - qo'ltig'iga olmoq* kabi frazeologizmlar ham keltirilgan leksemalarning mantiqiy asosiga ko'ra shakllangandir.

Shunday qilib, o'zbek tilida ko'pgina frazeologizmlar ayrim leksemalarning mantiqiy asosiga ko'ra shakllanadi. Bunda mantiqiy asos bo'lgan leksemalar va shu asosda shakllangan frazeologizmlar aynan bir denotativ ma'noni kasb etadi. Ammo shu tarzdagi frazeologizmlar mantiqiy asos bo'lgan leksemalardan o'zlarining ma'no qirralari hamda obrazli ifodalanishi bilan ajralib turadi.

O'zbek tilida ot va otlashgan so'zlarning fe'llar bilan birikuvidan quyidagi frazeologizmlar shakllangan: *buyurmoq* (*tashrif buyurmoq; qo'ymoq* (*ko'ngil qo'ymoq, bo'yniga qo'ymoq, odam qo'ymoq, ixlos qo'ymoq, mehr qo'ymoq, muhabbat qo'ymoq; olmoq* (*dam olmoq, avj olmoq, zabitga olmoq, zimmasiga olmoq, yo'l olmoq; bog'lamoq* (*ko'ngil bog'lamoq, bel bog'lamoq, umid bog'lamoq; ko'rmoq* (*umr ko'rmoq, yomon ko'rmoq, xush ko'rmoq, yaxshi ko'rmoq, ziyon ko'rmoq; tutmoq* (*ko'z tutmoq, ko'zda tutmoq, esida tutmoq;*

kechirmoq (*boshdan kechirmoq, dilidan kechirmoq, ko‘zdan kechirmoq, fikridan kechirmoq, hayolidan kechirmoq; tashlamoq* (*gap tashlamoq, ko‘z tashlamoq, so‘z tashlamoq, o‘rtaga tashlamoq, luqma tashlamoq*).

Bu xil birliklar qismlaridan birining yoki yaxlitligicha ko‘chma ma’nosiga quriladi.

O‘zbek tilida kishi a’zolarini anglatuvchi leksemalar ham frazeologizmlar ifodaviy va ma’noviy shakllanishida salmoqli o‘rin tutadi. Masalan, qo‘l leksemasi ishtirok etgan frazeologizmlar aksariyati ikki komponentli bo‘lib, uning turli harakat ma’noli fe’llar bilan birikishidan ot+fe’l qurilishli frazeologizmlar shakllanadi: *qo‘l bermoq, qo‘lga olinmoq, qo‘lga kirmoq, qo‘lga olmoq, qo‘lga temoq, qo‘lga tushmoq, qo‘ldan bermoq, qo‘ldan ketmoq, qo‘ldan chiqmoq, qo‘ldan o‘tkazmoq, qo‘liga qaramoq, qo‘liga qo‘nmoq, qo‘lidan kelmoq, qo‘lini bog‘lamoq, qo‘lini ko‘tarmoq, qo‘lini tortmoq, qo‘lini qaytarmoq, qo‘lini halollamoq, qo‘l olishmoq, qo‘l qo‘ymoq*.

Fe’l grammatik tayanch komponent vazifasini o‘tasa, qo‘l leksemasi semantik tayanch komponent bo‘lib, frazeologizmlar mantiqiy asosini belgilaydi. Masalan: *Saidiy hali o‘rnidan turib ulgurmagan edi, Salohiddin kelib qo‘l berdi.*

(A.Qahhor)

Qo‘li baland, qo‘li band, qo‘li bo‘s, qo‘li gul, qo‘li yengil, qo‘li kalta, qo‘li ochiq, qo‘li uzun, qo‘li egri, qo‘li qisqa kabi frazeologizmlar tarkibida qo‘l leksemasi sifat leksemalar bilan birikib gapga teng sifat frazeologizmlarni shakllantiradi:

Qo‘l baland kelganda suyunib, xotirjamlikka berilmaslik kerak.
(M.Ismoiliy)

Qo‘l leksemasi qatnashuvida *qo‘li egri, qo‘li kalta, qo‘li band, qo‘li baland* kabi ot frazeologizmlar shakllanadi.

Yurak leksemasi ham frazeologizmlar shakllanishida ishtirok etadi. Bu leksema fe’llar bilan birikib, *yuragini bo‘shatmoq, yuragidan urmoq, yuragini*

yormoq, yuragini olib qo'ymoq, yuragini ochmoq, yuragini siqmoq, yuragini tirnamoq, yuragini ezmoq, yuragini qitiqlamoq kabi ikki komponentli birikmaga teng fe'l frazeologizmlar shakllanadi.

Yurak leksemasi *bo'shatmoq, urmoq, yormoq, ochmoq, qo'ymoq, siqmoq, tirnamoq, ezmoq, qitiqlamoq* fe'llari bilan bog'lashuvga kirishib, frazeologizmlar tarkibidagi fe'l grammatik tayanch a'zo sifatida qatnashadi.

Fe'l komponent yurak leksemasini boshqaradi va butun iborada harakat ma'nosini reallashtiradi. Yurak leksemasi ibora uchun semantik, mantiqiy asos bo'ladi. Masalan:

Bu gaplarni shu vaqtgacha xech kimga aytolmay ,to'lib-toshib yurgan edim. Yuragim bo'shadi. (A.Qahhor)

O'zbek tilining frazeologik boyligida ko'z leksemasi ishtirokida shakllangan frazeologizmlar sonining ko'pligi va xilma(xilligi bilan ajralib turadi.

Ko'z leksemasi fe'l bilan birikishidan *ko'zini bog'lamoq, ko'zini bo'yamoq, ko'zini olib qochmoq, ko'zini olmoq, ko'zini ochmoq, ko'zini chalg'itmoq, ko'z olaytirmoq, ko'z yummoq, ko'z tashlamoq, ko'z tikmoq, ko'z urishtirmoq, ko'z yugurtirmoq, ko'z qismoq, ko'zga ilinmoq, ko'zga surtmoq, ko'zga tashlanmoq, ko'zga tushmoq, ko'zga chalinmoq, ko'zga yaqin bo'lmoq, ko'zdan yo'qolmoq, ko'zdan kechirmoq, ko'zda tutmoq* kabi fe'l frazeologizmlar shakllanadi.

Ko'z leksemasi to'g'ri ma'noda, fe'l a'zo esa ko'chma ma'noda qo'llanib, frazeologik ma'no yuzaga keladi. Frazeologik ma'no esa "ko'z" leksemasining mantiqiy asosiga qurilgan fe'l frazeologizmlarni shakllantiradi: *Tilini moylab, ko'zingni boylab, uyingga kirib olgach, dodingni bermasmikin. (I.Rahim)*

Ko'z leksemasi ot va fe'l bilan birikib, *ko'ziga cho'p bo'lmoq, ko'ziga cho'p solmoq, ko'zining yog'ini yemoq, ko'zini ko'ziga tikmoq, ko'zlarining oqini o'ynatmoq, ko'zining qirini tashlamoq* kabi fe'l frazeologizmlar shakllanadi: *Hatto shundoq deb uydagilarning ham ko'ziga cho'p solib yurgan. (H.Nazir)*

Ko‘z leksemasi ravish va fe’l bilan birikib ko‘ziga o’tday ko‘rinmoq, ko‘ziga tik qaray olmaslik, ko‘zini moshdek ochmoq kabi frazeologizmlar shakllanadi.

Ko‘z leksemasi ishtirokida uch yoki undan ortiq a’zoli shaklan gapga teng ko‘ziga yosh keladi, ko‘zidan yosh chiqadi, ko‘ziga qon to‘ldi, ko‘zidan o‘t chiqib ketdi, ko‘z ko‘zga tushdi, ko‘zi ko‘r, qulog‘i kar bo‘ldi, ko‘zini yog‘ bosdi, ko‘zi moshdek ochildi kabi frazeologizmlar shakllanadi.

Ko‘z leksemasi asosan ot va fe’l leksemalar bilan o‘zaro birikadi: ko‘zini shira bosdi, ko‘zi ola(kula bo‘lib ketdi, ko‘zi to‘rt bo‘ldi, ko‘zi uyquga ketibdi, ko‘zlaridan qon tomardi, ko‘zlarining paxtasi chiqdi, ko‘zlari qinidan chiqib ketayozdi, ko‘z oldi qorong‘ilashdi kabilar. Frazeologizmlar tarkibida asosan mustaqil leksemalar ishtirok etadi.

Ko‘z leksemasi sifat leksema bilan birikib, ikki a’zoli birikmaga teng sifat frazeologizmlar hosil bo‘ladi: ko‘zi ko‘r, qulog‘i kar, ko‘zi och, ko‘zi ochiq, ko‘zi tirikligida, ko‘zi tor, ko‘zi to‘q, ko‘zi o‘tkir, ko‘zga ko‘rinarli kabilar.

Ko‘z leksemasi ravish yoki ravish o‘rnida kelgan so‘zlar bilan birikkanda esa gapda ko‘pincha ravish vazifasida qo‘llanadigan frazeologizmlar shakllanadi: *ko‘zi bejo, ko‘z ilg‘amas, ko‘zi taka(puka, ko‘z ochib ko‘rgan, ko‘z qorachig‘idek, ko‘zini baqraytirib, ko‘z qorasidek, ko‘z qiri bilan, ko‘z o‘ngida, ko‘z tagidan, ko‘z ochib yumguncha, ko‘zi to‘rt bo‘lib, ko‘zini shamg‘alat qilib, ko‘z uzmay kabilar.*

Bosh leksemasi ishtirokida ham turli frazeologizmlar shakllanadi.

Bosh leksemasi fe’llar bilan birikib, *boshiga yetmoq, boshiga kelmoq, boshiga ko‘tarmoq, boshiga solmoq, boshga tushmoq, boshiga urmoq, boshiga chiqib olmoq, boshidan kechirmoq, boshidan oshib yotmoq, boshidan chiqarmoq* kabi ikki yoki uch komponentli fe’l frazeologizmlar shakllanadi.

Bosh leksemasining fe'llar bilan birikuvi natijasida ikki komponentli gapga teng qurilishli fe'l frazeologizmlar shakllanadi: *boshi aylandi, boshi baloga qoldi, boshi bukildi, boshi chiqmadi, boshi shishdi, boshi qotdi kabilar.*

Bosh leksemasi bilan uch va undan ortiq komponentli *boshi bilan sho'ng'ib ketmoq, boshi bilan kirib ketmoq, boshga bitgan balo bo'lmoq, boshga bitgan ofat bo'lmoq, boshga boshvoq qilarmidi, boshiga suv qo'ymoq, boshida yong'oq chaqmoq, boshida tosh chaqmoq, boshida tegirmon toshi yurgizmoq, bosh ko'tarib yurolmay qolmoq, boshini xam qilmoq, boshlarini bir joyga qovushtirmoq* kabi birikmaga teng fe'l frazeologizmlar ham shakllanadi.

Bosh leksemasi sifat yoki sifatlashgan leksemalar bilan birikib, sifat frazeologizmlar shakllanadi: *boshi bog'liq, boshi kal bo'lsa ham, ko'ngli nozik, boshi omon, boshi ochiq, boshi toshdan, boshi qorong'i, bosh og'riq* kabi sifat frazeologizmlar shakllanadi.

Oyoq leksemasi ham fe'llar bilan birikib, turli qurilishli fe'l frazeologizmlarni shakllantiradi: *oyog'ini bilib bosmoq, oyog'ini tirab olmoq, oyog'ini tortmoq, oyog'ini uzmaslik, oyog'ini chakki bosmoq, oyog'ini uzatmoq, oyoqdan qolmoq, oyog'idan tortmoq, oyoqqa bosmoq, oyog'iga yiqilmoq, oyog'i siyraklashdi, oyog'i tiyildi, oyog'i tortmadi kabilar.*

O'zbek tilida og'iz leksemasi ishtirokida *og'zini ochmoq, og'zini poylamoq, og'zini yummoq, og'zini moylamoq, og'ziga kelmoq, og'ziga tushmoq, og'ziga urmoq, og'ziga qoqmoq, og'zidan gullamoq, og'zidan tushmaslik* kabi frazeologizmlar shakllangan.

Shuningdek, **yuz** leksemasi bilan *yuz o'girmoq, yuzga solmoq, yuzga aytmoq, yuziga gapirmoq, yuziga qaray olmaslik, yuzi qizardi, yuzini yerga qaratmoq, yuzi yorug', yuzi yorug' bo'ldi, yuzi shuvut bo'ldi* kabi frazeologizmlar hosil bo'ladi.

O'zbek tilida til, burun, qulqoq, bo'yin, suyak leksemalari orqali ham frazeologizmlar hosil qilingan. Masalan: *til biriktirmoq, tilga kelmoq, tilga ko'chmoq, tilini bir qarich qilmoq, tilining uchida turmoq, qulqoq bermoq, qulqoq*

solmoq, qulog osmoq, qulog‘ini burab qo‘ymoq, qulog‘ini pishitmoq, qulog‘ini tikkaytirmoq, qulog‘ini ushlab ketmoq, qulog‘ini tishlamoq, qulog‘iga yetmoq, qulog‘iga chalinmoq, qulog‘iga quymoq, burnidan chiqmoq, burnidan buloq bo‘lib chiqmoq, burnini yerga ishqamoq, burnini ko‘tarmoq, burnini suqmoq, burnini tishlamoq, bo‘yin tovlarimoq, bo‘yin egmoq, bo‘yniga olmoq, bo‘yniga qo‘ymoq, bo‘ynidan soqit qilmoq, bo‘ynini xam qilmoq kabilar.

Xullas, kishi a’zolarini anglatuvchi leksemalar yordamida gapga teng va birikmaga teng qurilishli frazeologizmlar hosil bo‘ladi.

1.3. Sifat komponentli frazeologizmlarning semantik xususiyatlari/

O‘zbek tili frazeologik tizimida ot, fe’l tarkibli frazeologizmlar miqdori jihatidan ko‘pligi bilan ajralib tursa-da, sifatlarning ham frazeologik shakllanishdagi o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganib chiqish tilshunoslik nuqtai nazardan muhim ahamiyat kasb etadi.

Tilimizdagи *ichi qora, oq ko‘ngil, yuragi qora, fe’li keng, turqi sovuq, ko‘ngli pok, qalbi pok* kabi frazeologizmlar shaxsning xususiyatini ifoda etishi bilan o‘zaro bir guruhga birlashadi. Yuqoridagi frazeologizmlar tarkibida ishtirok etayotgan sifat leksemalar frazeologizmlar semantik va strukturaviy shakllanishida asosiy tayanch komponent bo‘lib xizmat qilmoqda.

Ta’kidlash lozimki, sifat o‘zgarmaydigan turkum bo‘lib, unga son va kelishik kategoriyalari xos emas: sifat so‘zshaklga to‘g‘ridan- to‘g‘ri bitishuv yo‘li bilan bog‘lanadi. Sifat frazeologizmlar gapda asosan sifatlovchi-aniqlovchi vazifasida keladi.

Tadqiqotlar frazeologizmlar shakllanishida semantik tayanch komponent vazifasida, asosan, asliy sifatlar ishlatilishini ko‘rsatadi.

Tahlil natijalaridan asliy sifatlarning rang-tus va shakl-hajmni bildiruvchi ma’noviy guruhlariga oid leksemalardan frazeologizmlarni shakllantirishda keng foydalilanligi ma’lum bo‘ldi. Quyida ularning har birini alohida ko‘rib chiqamiz.

Rang-tusni ifodalovchi leksemalar. Ma'lumki, o'zbek tilida rang(tusni ifodalash maqsadida ko'plab leksemalar ishlatiladi.Biroq ularning barchasi vositasida frazeologizmlar shakllanavermaydi. Sifat komponentli frazeologizmlar hosil bo'lishida quyidagi rang(tuslarni ifodalovchi leksemalar qatnashdi:

Oq leksemasi. **Oq** leksemasi predmetning rang-tusini,belgisini bildirishi bilan ibora tarkibida ishtirok etib,boshqa okkazional ma'nolarni ham ifoda etadi. Oq leksemasi asosan ot turkumiga tegishli so'zlar bilan birikib, turli ma'noli frazeologizmlarni shakllantiradi.

Oq ko'ngil iborasi tarkibida oq leksemasi pokiza, beg'ubor semasi qatnashib, shaxsning yaxshi niyatli, boshqalarga yomonlikni ravo ko'rmaydigan, to'g'rilik, yomonlikni bilmaslik ma'nolarini shakllantirishda tayanch komponent bo'ladi. Ma'lumki, o'zbek xalqi oq rangga yaxshilik timsoli sifatida qaraydi. Shu asosda mazkur leksema yordamida asosan ijobjiy ma'noli frazeologizmlar shakllangan: **oq yo'l, oq niyat, oq peshona, oq fotiha** va boshqalar. Misollardan sifat leksemalarning ko'pincha ot leksemalar bilan bog'lashuvga kirishganligi ayon bo'lmoqda.

Oq leksemasi qatnashgan frazeologizmlar tarkibida ot va fe'llar ham ishtirok etib, fe'l frazeologizmlar hosil qilinganligini quyidagi misollar tasdiqlaydi: oq bilan qorani ajratmoq-yaxshini yomondan, foydani zarardan farqlamoq; oq bilan qorani bilmoq; oqi oqqa, qizili qizilga ajraldi – bo'yi yetdi, yoshi katta bo'lib qoldi, balog'atga yetdi, ko'hlikkina bo'ldi; oq yo'l – safarga chiqayotgan shaxsga nisbatan yaxshi niyat bildirish; oqni oqqa, qorani qoraga ajratmoq – yaxshini yaxshi deb, yomonni yomon deb ko'rsatmoq; oqni oq, qorani qorani qora demoq – haqiqatni aytmoq ma'noli frazeologizmlar tarkibida esa oq leksemasi "pok", "to'g'rilik", "adolat" semalarida ishtirok etib, frazeologizmlar ma'nosini shakllantirishda tayanch komponent vazifasida qatnashadi.

Oqni qora demoq - yolg'on gapisht,haqiqatga teskari so'zlash ma'noli; **oq yuziga qora surmoq** – nohaq ravishda badnom qilishga urinmoq ma'noli

frazeologizmlar tarkibida esa qora leksemasi tayanch komponent bo‘lib, yolg‘on, bo‘hton semalari bilan ishtirok etmoqda. Qayd etish lozimki, oq leksemali frazeologizmlar nutqda qo‘llanish darajasi yuqori ekanligi bilan xarakterlanadi. Shaxs xarakteridagi odob-axloq, ijobiy sifatlarni, xursandlik, mammunlik holatini, xalqning pokiza, beg‘ubor niyatini ko‘rsatish maqsadida hamda halollik kabi ijobiy xislatlarni ifodalash uchun oq leksemasidan foydalaniladi.

Qora leksemasi ishtirokida, asosan, salbiy ma’noli frazeologizmlar shakllangan. Chunki bu rang(tus yomonlik timsoli hisoblanadi. Shuning uchun bu leksema yordamida shaxsning salbiy xarakterini ifodalovchi frazeologizmlar shakllangan: *ichi qora, ichi qoralik, ko‘ngli qora, ko‘ngli qoralik, yuragi qora, qora yurak, qorasi o‘chdi, qora kun, qora yuz, qora qish, qora kuch kabilar.*

Qora leksemasi frazeologizmlar tarkibida predmetning rangini ko‘rsatmaydi, balki ko‘chma ma’noda qo‘llanib, shaxs xarakteridagi munofiqqlik, g‘alamislik, g‘iybatchilik, berahmlik kabi salbiy xislatlarni emotsional - ekspressiv va obrazli ifodalashda qo‘llanadi. Masalan, ichi qora leksemasi ich so‘zi bilan birikib, salbiy semada qo‘llanadi.

Sariq chaqalik, sariq chaqaga arzimaslik frazeologizmlari tarkibida sariq leksemasi o‘zining arzimas semasi bilan qatnashmoqda.

Shakl va hajmni ifodalovchi sifat leksemali frazeologizmlar. O‘zbek tilida hajmni ifodalovchi leksemalar yordamida ham qator frazeologizmlar shakllangan. Bularning asosiyлари quyidagilardir:

Keng leksemasi ibora tarkibida notayanch a’zo sifatida quyidagi frazeologizmlar shakllanishida ishtirok etadi: *ko‘ngli keng, fe’li keng, yuragi keng, yuragi daryoday keng kabilar.*

Ko‘rinadiki, bu leksema yordamida kishilarning u yoki bu xarakteri va xislatlarini ifodalovchi frazeologizmlar shakllangan.

Ochiq leksemasi frazeologizmlar tarkibida notayanch leksema sifatida ishtirok etib, uning yordamida, asosan, ijobiy ma’noli frazeologizmlar

shakllangan. Mazkur leksema ot leksema bilan bog‘lashuvga kirishib, ot va sifat frazeologizmlarni hosil qiladi: *ko‘zi ochiq, kuzi ochiqligida, ko‘zi ochig‘ida; ko‘ngli ochiq, ochiq ko‘ngil, ochiq ko‘ngilli, ochiq chehrali, ochiq yuzli, ochiq qo‘lli, chehrasi ochiq, qo‘li ochiq, yuzi ochiq*

Past leksemasi ishtirokida pastga urmoq va esi past kabi frazeologizmlargina shakllangan.

Uzun leksemasi yordamida salbiy ma’no ifodalovchi tili uzun, qo‘li uzun kabi frazeologizmlar shakllangan.

Chuqur leksemasi ishtirokida **yelkasining chuquri ko‘rsin, yelkasining chuquri ham ko‘rmasin** kabi kam miqdordagi frazeologizmlar shakllangan.

Yuqori leksemasi bilan *yuqori kelmoq, qo‘li yuqori bo‘ldi, qo‘li yuqori keldi* kabi frazeologizmlar yasalgan.

Qisqa leksemasi bilan kishilarning chor(nochor ahvoli bilan bog‘liq *qo‘li qisqa, qo‘li qisqalik qildi* kabi ma’nolarni ifodalovchi frazeologizmlar paydo bo‘lgan.

Kalta leksemasi vositasida ham kishilarning chor-nochor ahvolini anglatuvchi *qo‘li kalta, qo‘li kalta bo‘ldi* kabi fe’l frazeologizmlar shakllangan.

Katta leksemasi bilan nutqda bot-bot qo‘llanadigan *katta gap, katta gapirmoq, katta ketmoq, katta og‘iz* kabi frazeologizmlar hosil bo‘lgan.

Og‘ir leksemasi ishtirokida kishilarning sifat ko‘rinishlarini ifodalovchi *og‘ir tabiat, tabiati og‘ir* kabi frazeologizmlar yuzaga keltirilgan.

Pishiq leksemasi ham kishilarning sifat ko‘rinishlarini ifodalovchi **zuvalasi pishiq, jussasi pishiq** kabi frazeologizmlar tarkibida qatnashgan.

Pok sifat leksemasi bilan kishilarning ijobiy xarakterini, ularning xususiyatini bildiruvchi *ko‘ngli pok, qalbi pok, yuragi pok* kabi sifat frazeologizmlar paydo bo‘lgan.

Puch leksemasi bilan faqat fe’l frazeologizmlar shakllanadi: *puchga chiqarmoq, puchga chiqmoq, qo‘ynini puch yong‘oq bilan to‘ldirmoq va b.*

Sovuq leksemasi bilan faqat salbiy ma'noli *afti sovuq, istarasi sovuq, so'xtasi sovuq* kabi sifat frazeologizmlar; *ko'ziga sovuq ko'rinoq, qo'lini sovuq suvga urdirmaslik* kabi fe'l frazeologizmlar shakllangan.

Sof leksemasi vositasida ijobiy ma'no *ifodalovchi sof dil, sof dillik, sof ko'ngil, sof yurak* kabi ot frazeologizmlar, *sof ko'ngilli, yuragi sof singari* sifat frazeologizmlar yuzaga keltirilgan.

Toza leksemasi ishtirokida kishilarning ijobiy xarakterini ifodalovchi, nutqda keng qo'llanuvchi *ko'ngli toza, yuragi toza* kabi sifat frazeologizmlar shakllangan.

Tor leksemasi bilan salbiy xarakterlarni ifodalovchi *fe'li tor, yuragi tor, ko'zi tor* kabi sifat frazeologizmlar, *do'ppisi tor kelmoq* kabi fe'l ibora paydo bo'lgan.

Xira leksemasi bilan, asosan, kishilarning xafalik kayfiyatini xarakterlovchi dilini xira qilmoq, ko'nglini xira qilmoq, ko'ngli xira bo'ldi, tabiatini xira qilmoq, ta'bini xira qilmoq kabi fe'l frazeologizmlar; ta'bi xira, yuragi xira kabi sifat frazeologizmlar; dili xiralik, ko'ngil xiralik, xira ko'ngil, xira yurak kabi ot frazeologizmlar shakllangan.

Qattiq leksemasi bilan salbiy ma'noli bag'ri qattiq, ko'ngli qattiq kabi sifat frazeologizmlar; so'zida qattiq turmoq, qattiq turmoq, qattiqqo'l bo'lmoq singari fe'l frazeologizmlar shakllangan.

Achchiq sifat leksemasi ishtirokida kishilarning vajohati bilan bog'liq *achchig'idan tushmoq, achchig'i keldi, achchig'ini keltirmoq, achchig'i chiqdi, achchig'i qistadi, achchiq qilmoq, achchig'i burnining uchida turadi* kabi fe'l frazeologizmlar va achchiq ustida kabi ravish ibora paydo bo'lgan.

Yengil leksemasi bilan *yengil tortmoq, qushdek yengil tortmoq* kabi fe'l frazeologizmlar shakllanadi.

Issiq sifat leksemasi bilan *istarasi issiq, yulduzi issiq* kabi sifat frazeologizmlar hamda *ko'ziga issiq ko'rinoq fe'l iborasi* shakllangan.

Bo'sh leksemasi ko'ngli bo'sh sifat iborasi tarkibida ishlataladi.

Ko'rindiki, sifat leksemalar frazeologizmlar shakllanishida somatik leksemalar kabi faol emas. Sifat leksemalar ichida rang(tusni bildiruvchi leksemalar bir qadar faolroqdir.

Sifat leksemalar frazeologizmlar tarkibida ot va fe'l leksemalar bilan bog'lashuvga kirishadi. Ular ishtirok etgan frazeologizmlar leksik(grammatik tabiatiga ko'ra sifat va fe'l frazeologizmlardan iboratdir.

Sifat leksemalar ishtirokida, asosan, kishilarning xarakteri va xususiyatini ifodalovchi frazeologizmlar shakllanadi.

II BOB. FE'L KOMPONENTLI FRAZEOLOGIZMLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI

2.1. Fe'l komponentli frazeologizmlar semantikasi.

Ma'lumki, o'zbek tili fe'llarida gapni gap sifatida uyushtiruvchilik xususiyati kuchli. Fe'llarning bu xususiyati frazeologizmlarda ham o'z aksini topgan.

O'zbek tilshunosligida fe'l frazeologizmlar bog'lashuvlik xususiyati atroflicha yoritilgan¹.

Fe'llarning nutq elementlarini birlashtiruvchilik xususiyati o'zbek tilida "frazeologizmlar asosiy qismini fe'l frazeologik frazeologizmlar tashkil qilishi"²ni ta'minlaydi. Fe'llar frazeologizmlar tarkibida grammatik tayanch a'zo sifatida qatnashadi. Fe'lning boshqaruuvlik xususiyati ko'plab fe'l frazeologizmlarni shakllantiradi.

Fe'l leksemalar ichida harakat, chaqiriq, his(hayajon va emotsiyani ifodalovchi fe'llar frazeologik faol hisoblanadi. To'plangan materiallar, ayniqsa, harakat(holatni ifodalovchi fe'l leksemalarning frazeologik faolligi juda yuqori ekanligini ko'rsatadi. Masalan, birgina "kelmoq" harakat fe'li o'zbek tilida turli frazeologizmlar tarkibida grammatik qatnashadi: *baland kelmoq, dunyoga kelmoq, duch kelmoq, joni xalqumiga kelmoq, zarar keltirmoq, ko'z oldiga keltirmoq, ko'ngliga kelmoq, malol kelmoq, ona suti og'ziga kelmoq, rahmi kelmoq, tiliga kelmoq, to'g'ri kelmoq, xush kelmoq, xo'rliги kelmoq, o'ziga kelmoq, o'ngidan kelmoq, qahri kelmoq, g'azabga kelmoq, g'ashi kelmoq, g'olib kelmoq* va b. Bunda fe'l, asosan, ot leksemalar bilan bog'lashuvga kirishadi. Ammo bu o'rinda fe'l leksemalarning semantik tayanch komponent bo'la olishi to'g'risida so'z yuritish qiyin. Chunki fe'l leksemalar frazeologizmlar shakllanishida semantik tayanch a'zo bo'lib xizmat qilmaydi. Fe'l leksemalarning grammatik xususiyati kuchli bo'lib, sof fe'llar faqat frazeologizmlarni shakllantiradi. Ot, sifat leksemalar

¹ Rahmatullayev Sh. O'zbek tilida fe'l frazemalarning bog'lashuvi. - Toshkent: Un-t, 1992.- 126 b.

² Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. - 11 b.

barcha to'rt leksik(grammatik guruhlarga tegishli frazeologizmlar shakllanishida ishtirok etsa, fe'l leksemalar faqatgina fe'l frazeologizmlar shakllanishida qatnashadi. Shu ma'noda fe'llarni frazeologik faol leksema deyish shartlidir. Bunda fe'llarning frazeologizmlar strukturasini shakllantirishdagi rolini alohida ta'kidlash lozim.

O'zbek tilida "ketmoq" harakat fe'li ham frazeologik faol bo'lib, uning ishtirokida ko'plab frazeologizmlar shakllangan. Quyidagi frazeologizmlar tarkibida "ketmoq" fe'li harakat ma'nosida grammatik tayanch a'zo sifatida qatnashadi: *dovrug'i ketdi, dong'i ketdi, zoye ketmoq, katta ketmoq, ko'zi uyquga ketmoq, mukkasidan ketmoq, pinakka ketmoq, esi ketmoq, o'zidan ketmoq, qo'lidan ketmoq, holdan ketmoq, hushdan ketmoq, dili ketmoq* va boshqalar.

Fe'l leksemalar frazeologik strukturani shakllantiruvchi asosiy manba hisoblanadi. Bunda komponent sifatida nafaqat fe'l, balki formalar ham ishtirok etadi. Fe'l leksemalar frazeologizmlar tarkibida fe'lga xos bo'lgan ayrim xususiyatlarni saqlab qoladi. Masalan, "bermoq" fe'li frazeologizmlar tarkibida yusushtiruvchi, birlashtiruvchi markaz bo'lib xizmat qiladi: *bardosh bermoq, jazo bermoq, adabini bermoq, ahamiyat bermoq, ko'ngil bermoq, boy bermoq, darak bermoq, dosh bermoq, yon bermoq, jonini jabborga bermoq, zo'r bermoq, tan bermoq, so'z bermoq, xalaqit bermoq, erga bermoq* va b.

Fe'lning vazifaviy shakllari ham frazeologik strukturani shakllantirishda mahsuldor hisoblanadi: *berganning betiga qarama, berdisini aytmoq, bersang(yeyman, ursang o'laman kabilar.*

O'zbek tilida harakatni ifodalovchi "olmoq" fe'li ham frazeologik faol leksema sanaladi. Bu leksema ishtirokida, asosan, fe'l frazeologizmlar shakllanadi: *avj olmoq, bel olishmoq, bo'yniga olmoq, gardaniga olmoq, damini ichiga olmoq, dam olmoq, don olishmoq, yelkasiga olmoq, yonini olmoq, zabitiga olmoq, zimmasiga olmoq, yo'l olmoq, ko'zini olmaslik, ko'zining ostiga olmoq, ko'zining tagiga olmoq, ko'nglini olmoq, oldini olmoq, og'ziga olmoq, so'z olmoq,*

tan olmoq, tarafini olmoq, tilga olmoq, o‘zini qo‘lga olmoq, qo‘y og‘zidan cho‘p olmaslik, es-hushini olib qo‘ymoq va h.z.

Harakatni ifodalovchi "ko‘tarmoq" fe’li ham qator leksemalar bilan bog‘lashuvga kirishib, ko‘plab frazeologizmlar shakllanadi: *bosh ko‘tarmoq, burnini bir qarich ko‘tarmoq, burnini ko‘tarmoq, burnini osmonga ko‘tarmoq, dimog‘i ko‘tarildi, yodidan ko‘tarilmoq, yostiqdan bosh ko‘tarmoq, ko‘kka ko‘tarmoq, ko‘kragi tog‘day ko‘tarildi, ko‘nglini ko‘tarmoq, obruyi ko‘tarildi, osmonga ko‘tarmoq, ruhi ko‘tarildi, fig‘oni falakka ko‘tarildi, hayoldan ko‘tarilmoq, xotiradan ko‘tarilmoq, esidan ko‘tarilmoq, qo‘l ko‘tarmoq, sirkasi suv ko‘tarmaydi* kabilar.

O‘zbek tilidagi "ochmoq" fe’li ham ko‘plab frazeologizmlar shakllanishida ishtirok etgan. Masalan, *u avra(astarini ochmoq, bahridilini ochmoq, beti ochilib ketdi* kabi frazeologizmlarda grammatisk tayanch komponent sifatida qatnashadi. Shuningdek, bu fe’l ishtirokida *bahrini ochmoq, ko‘zi moshdek ochildi, ko‘zini moshdek ochmoq, ko‘nglini ochmoq, og‘zini ochmoq, chehrasini ochmoq, chiroyi ochildi, qalbini ochmoq, yuragini ochmoq, yuzini ochmoq* kabi frazeologizmlar shakllangan. Keltirilgan frazeologizmlar tarkibida, asosan, faol leksemalar qatnashadi, fe’l esa ko‘pincha ot leksemalar bilan birikib keladi.

Ko‘rinadiki, fe’l leksemalarning turli leksemalar bilan birika olish xususiyati o‘zbek tilida ko‘plab fe’l frazeologizmlar shakllanishiga sabab bo‘lgan.

Yuqorida ta’kidlanganidek, frazeologizmlar komponentlari to‘liq semantik erkinlikdan mahrum bo‘ladi. Leksemalar frazeologizmlar tarkibida leksemaga xos bo‘lgan ma’noni to‘liq ifoda etmaydi. Ular o‘zlariga xos bo‘lgan ma’nodan tashqari, narsa, predmet, harakat, xabarlarni ifoda eta boshlaydi. Masalan, "chiqmoq" fe’li harakatni ifodalab, ish(harakatning boshlanish nuqtasini anglatadi. Frazeologizmlar tarkibida esa bu leksema o‘zining leksik ma’nosini, ya’ni harakat ma’nosini yo‘qotadi: *yo‘ldan chiqmoq, chiziqdan chiqmoq, abjag‘i chiqdi, gaplari bir joydan chiqdi, yoddan chiqmoq, jahli chiqdi, joni chiqdi, izdan chiqmoq,*

izmidan chiqarmoq, ishdan chiqmoq, ko'zlarining paxtasi chiqdi, ko'nglidan chiqmoq, puchakka chiqmoq, turmushga chiqmoq kabi. Bunday frazeologizmlar tarkibida fe'l leksemasi o'zining harakat ma'nosida qo'llanmaydi. Demak, frazeologizmlar tarkibida leksemalar semantik va grammatic jihatdan passivlashadi. Masalan, *po'stagiga somon tiqmoq* iborasining bironta komponenti ham o'ziga xos bo'lgan ma'noni ifoda etmaydi. Bunda leksemalar o'zlarining xususiy ma'nolarini yo'qtgandir.

Shunga qaramay, frazeologizmlar komponentlari o'zlarining xususiy ma'nolarini saqlashi yoki saqlamasligi komponentlarning o'zaro bog'lashuviga bog'liq bo'ladi.

Avvalo, ko'pchilik frazeologizmlarda grammatic tayanch komponent ajralib turadi. Bunday komponent frazeologizmlar leksik(grammatic) ma'nolarini ko'rsatib turadi. Fe'l frazeologizmlarda grammatic tayanch komponent fe'lning o'zi hisoblanadi. Masalan, o'zbek tilidagi ko'z yummoq, izidan yurmoq, og'zini moylamoq kabi frazeologizmlardagi "yummoq", "yurmoq", "moylamoq" fe'llari shu frazeologizmlar kategorial ma'nolarini anglatib turadi. Bu o'rinda fe'llar vazifasiga ko'ra morfemalarga yaqin turadi.

Dalillar fe'llarning aksariyat qismi frazeologizmlarda grammatic tayanch komponent vazifasida kelishini tasdiqlaydi. Bunday komponent butun iboraga fe'lllik xususiyatini o'tkazadi. Bu xil frazeologizmlar ish(harakat, faoliyatni ifoda etadi. Grammatic tayanch komponentlar frazeologik ma'noni emas, kategorial ma'nolarni hosil qiladi.

Frazeologizmlar tarkibida ko'p hollarda sodda fe'llar qatnashadi. Buning qonuniyligi shundaki, ayni sodda fe'llar birlamchi jarayonni yuzaga keltiradi. Sodda fe'llarning ishtiroki asosida fe'l frazeologizmlar hosil bo'ladi. Fe'l frazeologizmlar ikki asosiy leksema-fe'l va uning to'ldiruvchisidan tashkil topadi. Frazeologizmlar tarkibida fe'l leksema o'zining bir qadar valentlik va grammatic xususiyatlarini yo'qtadi. Jumladan: a) fe'l frazeologizmlarda barcha shaxs(sonda

qo'llanish imkoniyati bo'lmaydi: ayrim fe'l frazeologizmlar faqat bir shaxs va sonda ishlatiladi: non ursin, oq yo'l bo'lsin kabilar; b) ko'pgina fe'l frazeologizmlar yo bo'lishli yoki bo'lishsiz shakllarda qo'llanadi, ayrim fe'llar faqat bo'lishli shaklda qo'llanadi: boshi ko'kka yetdi, kavushini to'g'rilamoq kabilar.

Mushugini "pisht" demaslik, qosh qo'yaman deb ko'z chiqarmoq kabi fe'l frazeologizmlar esa faqat bo'lishsiz shaklda ishlatiladi; v) fe'l frazeologizmlar zamon va mayllarda qo'llanish darajasi ham bir qadar cheklangan: boshi osmonga yetdi, qo'yi mingga yetdi kabi frazeologizmlar faqat o'tgan zamonda; aytsam, tilim kuyadi, aytmasam, dilim kabi frazeologizmlar faqat kelasi zamonda ishlatiladi. Demak, fe'llar frazeologizmlar tarkibida butunlay erkin bo'lmaydi. Ularning faoliyati bir qadar cheklangandir. Ma'lumki, "ellipsis nutq elementining tushib qolishidir"¹, shu bilan birga kontekstual va semantik tahlil asosida qayta tiklanishi yoki matndan anglashilib turuvchi til hodisasiidir. Tilshunoslikda bu hodisa "elliptik transpozitsiya" deb ham yuritiladi. Elliptik transpozitsiyada iboraning ma'lum bir komponenti tashlanishi asosida boshqa funksional guruhga tegishli frazeologizmlar paydo bo'ladi.

Masalan, **og'zi qulog'iga yetdi** iborasining "yetdi" fe'l komponenti tashlanishi bilan tilda "og'zi qulog'ida" iborasi yuzaga keladi. Shakllangan ikkinchi ibora birinchi iboradan tarkib jihatdan farqlanadi. Lekin ular turli funksional guruhlarga tegishliligi bilan xarakterlanadi.

Og'zi qulog'iga yetdi fe'l iborasi **og'zi qulog'ida** ravish iborasiga aylandi. Demak, frazemik ellipsis grammatik o'zgartirishlar asosida yuzaga keladi. Elliptik transpozitsiya asosida ma'nosi birlamchi frazeologizmga yaqin, funksional guruhlarga tegishliligiga ko'ra, undan farqlanadigan frazeologizmlar paydo bo'ladi.

¹ Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izoxli lug'ati. –Toshkent: O'qituvchi, 1985. - 3 b.

Ko‘rinadiki, bu jarayonda tashlanuvchi komponent mavjud bo‘ladi. Shu asosda yangi strukturali ibora yuzaga keladi. Bu jarayonda fe’l komponentlar (yurak(bag‘ri xun bo‘ldi (yurak(bag‘ri xun), ot komponentlar (boshidan oshib(toshib yotmoq(oshib(toshib yotmoq, burnini osmonga ko‘tarmoq, burnini ko‘tarmoq), son komponentlar (burnini bir qarich ko‘tarmoq(burnini ko‘tarmoq), modal so‘zlar (dilida siyohlik bor(dili siyoh), ravish komponentlar (yuzini teskari o‘girmoq(yuzini o‘girmoq, yuzini ters burmoq (yuzini burmoq), o‘zlik olmoshlari (o‘ziga bino qo‘ymoq- bino qo‘ymoq) tushirib qoldiriladi

Til materiallarini tahlil qilish asosida ellipsisga uchragan yana quyidagi frazeologizmlar mavjudligi aniqlandi. Misollarga murojaat qilamiz: *dili qon bo ‘lmoq, bag‘ri qon bo ‘lmoq,*

Frazeologizmlar esa har qanday komponenti ellipsisga uchrashi mumkin. Frazemik ellipsis natijasida frazemik variantlar va stilistik variantlar paydo bo‘ladi. Ellipsis asosida nafaqat so‘zlar, balki frazeologizmlar tarkibidagi so‘z birikmalari ham tashlanishi mumkin.

Ellipsis nutq elementining tushib qolishidir. Nutqda ellipsis turli maqsatlarda yuz beradi, undan odatda stilistik figura sifatida foydalaniлади¹.

Frazeologizmlar turli komponentlari ellipsisga uchrashi mumkin: fe’l komponentlar ellipsisga uchraydi, natijada fe’l ibora ravish iboraga o‘tadi: yurak-bag‘ri xun bo‘ldi – yurak- bag‘ri xun, bir pul bo‘.

Yana misollar keltiramiz: *boshi ko ‘kka yetdi - boshi ko ‘kda -fe’l ibora, bir tiyin bo ‘lmoq (bir tiyin - fe’l ibora)*. Ko‘rinadiki, ellipsisga uchragan frazeologizmlar ma’no jihatdan deyarli o‘zgarmaydi, ammo tarkib jihatidan o‘zgaradi.

Ellipsis tufayli tilimizda yangi-yangi frazeologizmlar shakllanganligini quyidagi misollar ham yaqqol tasdiqlaydi: *boshlarini qovushtirmoq, burnini osmonga ko ‘tarmoq, burnini ko ‘tarmoq.*

¹ Xojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati. (Toshkent: O‘qituvchi, 1985. - 111 б.

Shuningdek, burnini bir qarich ko‘tarmoq fe’l iborasi ham ellipsisga uchragan, ya’ni iboraning "bir qarich" komponenti tushirilishi bilan yangi strukturali "burnini ko‘tarmoq" iborasi yuzaga keladi. Birinchi umumtil iborasi leksik(grammatik xususiyatiga ko‘ra fe’l iboradir. Ellipsisga uchragan ibora ham fe’l iboraligicha qoldi. Chunki bunda fe’l komponent tashlanmadi. Fikrimizcha, bir leksik(grammatik guruhdan ikkinchi leksik(grammatik guruhga o‘tish ko‘p jihatdan qaysi turkumga tegishli komponentning tushirilishiga bog‘liqdir. Keltirilgan misollarda fe’l komponent saqlanganligi uchun ham yuzaga kelgan ikkinchi ibora o‘zining fe’lllik xususiyatini saqlab qoldi. Til faktlari shuni ko‘rsatadiki, fe’l komponent tushirilishi bilan frazeologizmlar bir leksik-grammatik guruhdan ikkinchi leksik-grammatik guruhga o‘tadi. Masalan, **dili siyoh bo‘ldi** umumtil iborasining fe’l komponenti ellipsisga uchrashi natijasida fe’l iboradan ravish iboraga o‘tiladi. Umumtil iborasi bo‘lgan ko‘ngli qora bo‘ldining ko‘ngli qora, dimog‘i chog‘ bo‘ldining dimog‘i chog‘ shaklida ham fe’l komponentlar tushirilishi bilan fe’l frazeologizmlar ravish iboraga aylanadi.

Quyidagi frazeologizmlarning fe’l komponentlari ellipsisga uchraydi va shu asosda ularning funksional guruhlarga tegishliligi o‘zgaradi.

Do‘ppisini yarimta qilib umumtil iborasining "do‘ppisi yarimta" shakli grammatik jihatdan farqlanadi. Bunda fe’l ibora ravish iboraga o‘tadi.

Ta’bi tirriq bo‘ldi-ta’bi tirriq. Bunda fe’l ibora ellipsis natijasida sifat iboraga o‘tadi.

Kayfini chog‘ qilmoq-kayfi chog‘ iborasining "qilmoq" fe’l komponenti ellipsisga uchrashi bilan ravish ibora shakllanadi. Shuni ta’kidlash lozimki, ikkilamchi frazeologizmlar umumtil frazeologizmlari bilan o‘zaro ma’no va struktura jihatdan bog‘langan, munosabatdor hisoblanadi.

Quyidagi fe’l frazeologizmlar ellipsisga uchragandan keyin sifat frazeologizmlarga o‘tadi: *tili uzun bo‘ldi -tili uzun; tili qisiq bo‘ldi - tili qisiq; yuzi*

yorug‘ bo‘ldi - yuzi yorug‘; qo‘li baland bo‘ldi - qo‘li baland; qo‘li kalta bo‘ldi - qo‘li kalta; qo‘li qisqalik qildi -qo‘li qisqa.

Ko‘rinadiki, bu kabi frazeologizmlar fe’l komponenti tashlanishi bilan ular sifat frazeologizmlarga aylandi.

Frazeologizmlar fe’ldan tashqari komponenti ellipsisga uchrasa, ularning funksional xususiyati o‘zgarmaydi. Masalan: *jonini jabborga bermoq* (*jonini bermoq; zig‘ir yog‘day ko‘ngliga urmoq* (*ko‘ngliga urmoq; kalavasining uchini yo‘qotmoq* (*kalavasini yo‘qotmoq; kulini sovurmoq* (*kulini ko‘kka sovurmoq; ko‘zi uyquga ketibdi, ko‘z tutmoq; nonini tuyu qilmoq, tepe sochi tik bo‘lib ketdi; so‘zida qattiq turmoq; taqdirga; yuzini teskari o‘girmoq; yuragi qon bo‘lmoq kabilar*.

Misollardan umumtil frazeologizmlar barcha komponentlari ellipsisga uchrashi ayon bo‘lmoqda. Fe’l komponent ellipsisga uchrasa, iboraning grammatik xususiyati o‘zgaradi. Boshqa so‘z turkumli komponentlar ellipsisga uchrasa, iboraning grammatik xususiyati o‘zgarmaydi.

2.2. Fe’l frazeologizmlarning paradigmalari

Frazeologizmlar paradigmatic shakli leksemalarning paradigmatic shaklidan deyarli farq qilmasa-da, lekin ularning nutqda yuzaga chiqishida, funksional ko‘rinishlarida alohida xususiyatga ega.

Frazeologizmlar nutqda til birlklari bilan aloqa va munosabatga kirishuvi asosida shakliy o‘zgarishi ularning paradigmatic shaklini tashkil etadi.

Frazeologizmlar paradigmatic shakllari ibora tarkibidagi otning kelishik shakllari bilan o‘zgarishi, fe’lning shaxs-son shakllarida o‘zgarishi natijasida yuzaga keladi. Shu ma’noda frazeologizmlar paradigmatic shakllari ularning qaysi so‘z turkumiga mansubligi bilan belgilanadi.

O‘zbek tilida frazeologizmlar asosiy qismini fe’l frazeologizmlar tashkil etadi. Ibora tarkibida qatnashgan so‘zlar o‘rtasidagi sintaktik bog‘lanish birikmaning ichki sintaktik qurilishini belgilaydi. Masalan, *ish(i) tushdi (kimning*

kimga), mehri tushdi, og‘irligi tushdi, rashki keldi, suqi keldi, suqi kirdi kabi frazeologizmlar vositali to‘ldiruvchi bilan bog‘lashuvli frazeologizmlar bo‘lib, vositali to‘ldiruvchi jo‘nalish kelishigida, fe’l a’zo esa o‘timsiz shaklda o‘zaro sintaktik munosabatga kirishgan holda shakllanadi. Yoki *achchig‘i qistadi, ko‘ngli bo‘shadi, nafsi og‘ridi* kabi frazeologizmlarda vositali to‘ldiruvchi chiqish kelishigida shakllanadi va fe’l a’zo o‘timsiz fe’l bilan ifodalanadi.

Bag‘riga olmoq, panohiga olmoq, pinjiga olmoq, qo‘ltig‘iga olmoq, ko‘ngliga yaqin olmoq kabi frazeologizmlar vositasiz to‘ldiruvchi bilan bog‘lanadi, fe’l a’zo o‘timli fe’l bilan ifodalanadi.

Og‘zi qulog‘iga yetdi, ona suti og‘ziga keldi, esi o‘ziga keldi kabi uch a’zoli frazeologizmlar ikki a’zosi ot leksema bilan ifodalangan, fe’l a’zo esa o‘timsiz bo‘ladi. Iboraning tarkibida fe’l a’zo jo‘nalish kelishigidagi so‘zshaklni boshqarib keladi. Shunga ko‘ra frazeologizmlar tuzilishi jihatidan birikmaga teng va gapga teng bo‘ladi.

Fe’l frazeologizmlar qurilishi jihatidan birikmaga teng bo‘lsa, bunday ibora tuslanadi: *og‘iz ochdim, og‘iz ochding, og‘iz ochdi yoki mum tishladim, mum tishlading, mum tishladi; ko‘zini chalg‘itdim, ko‘zini chalg‘itding, ko‘zini chalg‘itdi; til biriktirdim, til biriktirding, til biriktirdi kabilar.*

Fe’l ibora ichki sintaktik qurilishi gapga teng bo‘lsa, bunday ibora tuslanmaydi: *omadi keldi, tarvuzi qo‘ltig‘idan tushdi, barakasi uchdi, oyog‘i tortmadi, rangida qon qolmadi, uyqusi qochdi* kabilarda fe’l leksemalar tuslana olmaydi.

Fe’l frazeologizmlar faqat tuslanishi jihatidan farqlanadi. Mayl,zamon kategoriyalari shakllarida *og‘iz ochsam, mum tishlasam, obro‘yi tushsa, ko‘zini chalg‘itsa, til biriktiribdi, ko‘ngli joyiga tushibdi, ko‘zini yog‘ bosibdi* kabi o‘zgarishlar har ikkisida ham sodir bo‘laveradi. Fe’l frazeologizmlar aksariyati bo‘lishli va bo‘lishsiz shakllarda bo‘ladi: *og‘iz ochma, og‘iz ochmaylik, mum*

tishlama, mum tishlamaylik, ko'zni chalg'itma, ko'zni chalg'itmaylik, til biriktirma, til biriktirmaylik kabilar.

Frazeologizmlar turli shakllari iboraning bir yoki ikki komponentida namoyon bo'ladi. Fe'l frazeologizmlar tarkibidagi fe'l leksema asosan otlashgan yoki ot so'z turkumi bilan birikadi. Ot so'z-komponent egalik affiksini oladi: *murodiga yetmoq, og'ziga talqon solmoq, tegirmoniga suv quymoq, tutuni osmonga chiqdi, yuziga solmoq, qulog'iga chalinmoq, qo'li uzun, g'amini yemoq kabilar.*

Egalik affiksi vositasida fe'l ibora uch shaxsdan biriga nisbat berilayotganligi namoyon bo'ladi: *yuragim bo'shadi, yuraging bo'shadi, yuragi bo'shadi, qo'lim tegmadi, qo'ling tegmadi, qo'li tegmadi; yuzimga qon yugurdi, yuzingga qon yugurdi, yuziga qon yugurdi kabilar.*

Gapga teng qurilishli frazeologizmlarda shaxs-son ma'nosi egalik affiksi bilan ifodalanadi: *ichim qizidi, iching qizidi, ichi qizidi; og'zim oshga yetdi, og'zing oshga yetdi, og'zi oshga yetdi; sho'rimga sho'rva to'kildi, sho'ringga sho'rva to'kildi, sho'riga sho'rva to'kildi* kabilar

Birikmaga teng qurilishli fe'l frazeologizmlar shaxs-son ma'nosini tuslovchi ham, egalik affiksi ham ifodalayveradi: *baxtimni topdim, baxtingni topding, baxtini topdi; imzomni chekdim, imzongni chekding, imzosini chekdi* kabi. Bunda tuslovchi bilan egalik qo'shimchalari o'zaro shaxs-sonda moslashadi.

Fe'l frazeologizmlar tarkibida mustaqil bo'limgan so'zlar ham qo'llaniladi. Yordamchi leksemalar (ko'makchi, bog'lovchi, bog'lanmalar) ham frazeologizmlar tarkibidagi so'zlarning o'zaro sintaktik munosabatga kirishuvida ishtirok etishi ko'zga tashlanadi. Shuningdek, yordamchi leksemalar frazeologizmlar shakllanishida ham qatnashadi.

Ma'lumki, yordamchi leksemalar mustaqil leksik ma'noga ega bo'lmasdan, birikma yoki gap tarkibida kelib, mustaqil ma'noli leksemalarning bir(biri bilan sintaktik aloqaga kirishishini ta'minlash uchun xizmat qiladi. Frazeologizmlar

turg‘un birikmalar bo‘lishidan qat’i nazar, ularning komponentlari o‘zaro sintaktik aloqaga kirishadi. Bunday aloqani ro‘yobga chiqarishda yordamchi leksemalarning ham alohida o‘rni bor. Fikrimizning tasdig‘i uchun quyida frazeologizmlar tarkibida ishtirok etgan yordamchi leksemalar guruhini ko‘rib chiqamiz.

1. Frazeologizmlar tarkibidagi ko‘makchilar. Ko‘makchilar frazeologizmlar tarkibida maqsad, sabab, vosita kabi sintaktik munosabatlarni bildiradi va sintaktik funksiyasiga ko‘ra, kelishik qo‘sishimchalariga o‘xshaydi. Masalan: boshi bilan kirib ketmoq, yer bilan bitta bo‘lmoq, yer bilan yakson bo‘lmoq, yer osti bilan qaramoq, ko‘z qiri bilan, ochiq chehra bilan, ko‘z qiri bilan, qaysi yuz bilan, qo‘ynini puch yong‘oq bilan to‘ldirmoq va b.

O‘zbek tilida quyidagi ko‘makchilar frazeologizmlar tarkibida tez-tez ishlatilib turiladi: kabi ko‘makchisi qiyos-o‘xshatish munosabatini ifodalash uchun ibora tarkibida ishtirok etadi: *qush kabi yengil tortmoq*.

Keyin ko‘makchisi payt munosabatini bildirib, chiqish kelishigidagi so‘zdan so‘ng keladi. Masalan: *ish bitib eshak loydan o‘tgandan keyin, hayit o‘tgandan keyin xinani achangga ber* kabilar.

Boshqa ko‘makchisi frazeologizmlar tarkibida ajratish, farqlash kabi munosabatlarni bildiradi: nomimni boshqa qo‘yaman, otimni boshqa qo‘yaman, otimni boshqa qo‘ying kabilar.

Burun ko‘makchisi payt ma’nosini anglatadi: eldan burun.

Qarshi ko‘makchisi zidlash ma’nosini ifodalaydi: *qarshi olinmoq, qarshi olmoq* kabilar.

2. Frazeologizmlar tarkibidagi bog‘lovchilar. Bog‘lovchilar frazeologik birikmalar tarkibidagi komponentlarni bog‘lash uchun xizmat qiladi va turli munosabatlarni ifoda etadi. Masalan, ham bog‘lovchi vazifasida kelganda ish(harakatning bir vaqtda yoki ketma(ket bajarilganligini, nisbat, qiyoslash, orttirish kabi holatlarni ruyobga chiqaradi. Masalan, *boshiga qilich kelganda ham,*

boshiga qilich kelsa ham, yelkasining chuquri ham ko ‘rmasin, yetti uxbab tushiga ham kirmaslik, jonini ham ayamaslik, ikki dunyoda ham, oradan qil ham o ‘tmaydi, otdan tushsa ham uzangidan tushmaslik, tushiga ham kirmaslik va b.

Bilan ko‘makchisi bog‘lovchi vazifasida ham frazeologizmlar tarkibida kelib, komponentlarning teng va birgalik munosabatlarini ifodalaydi. Masalan, *yer bilan osmoncha, osmon bilan yercha, ot bilan tuyacha, oq bilan qorani ajratmoq, oq bilan qorani bilmoq kabilar.*

3. Frazeologizmlar tarkibidagi yuklama, undov va taqlidiy so‘zlar. Ma’lumki, yuklamalardan ayrim so‘z va gaplarga qo‘sishimcha ottenka berish maqsadida foydalanyladi. Ular frazeologizmlar tarkibida ham birikmaga qo‘sishimcha ma’no bag‘ishlash, kuchaytirish, ta’kidlash uchun qo‘shiladi va pirovardida o‘ziga xos frazeologizmlar shakllanadi. Masalan, -ki yuklamasi ibora ma’nosini kuchaytirish, ta’kidlashni ifodalash uchun qo’llanadi: *yer yorilmadiki, kirib yo ‘qolsa, turgan gapki.*

Frazeologizmlar tarkibida uchraydigan -u yuklamasi birikmaning ma’nosini kuchaytiradi. Masalan, *jonu holiga qo ‘ymaslik, ko ‘zining oqu qorasi, lomu mim demay, osmonu yercha, oqu qorani tanimoq, oqu qorani tushunmoq, sanu manga bormoq va b.*

-yu yuklamasi frazeologizmlar tarkibida kuchaytiruv va ta’kid ma’nolarini ifodalash uchun qo’llanadi. Masalan, *bir oyog ‘i to ‘rda(yu, bir oyog ‘i go ‘rda, yer yorilsa(yu, yerga kirib ketsa va b.*

Frazeologizmlar tarkibida undovlar ham uchraydi. Ibora tarkibida bunday so‘zlar mahsus semantik-ekspressiv ma’noni ifodalaydi: Masalan, baxt va quvonish ottenkasini (ana rohat, ana maza, og‘zingizga bol, og‘zingizga asal, labingizga shakar, tilingga shakar kabi); ajablanish va taajjubni (ana xolos, heh, attang, voy xudoyimey anglatadi).

Frazeologizmlar tarkibida emotsional undovlar ham uchraydi: gah deganda qo‘lga qo‘nadigan qilib olmoq, lom demaslik, lom(mim demay, mushugini pisht

demaslik, hash(pash deguncha, ha(hu deguncha, chumchuq pir etsa, yuragi shir etadi, churq etib, churq etmaslik, yuragi shig‘ etib ketdi, yuragi shuv etib ketdi kabilar.

XULOSA

1. Frazeologizmlar til elementlarining, xususan ikki yoki undan ortiq so‘zlarning o‘zaro birikishi asosida yuzaga keladi. Shu bilan birga frazeologizmlar hosil qilishning o‘ziga xos xususiyatlari va qonuniyatlari mavjud.
2. Frazeologizmlar erkin bog‘lanma yoki gapni o‘ziga xos bo‘lmagan vazifada qo‘llash asosida shakllanadi va til birliklaridan ma’no nuqtai nazaridan farqlanadi.
3. O‘zbek tilida frazeologizmlar ot va otlashgan leksemalarning fe’llar bilan birikuvidan shakllanib, ularning mantiqiy asosi tarkibidagi biror leksemaning denotativ ma’nosidan, ma’no tarkibidagi qismlarning to‘g‘ri ma’nosidan kelib chiqmaydi, balki qismlaridan birining yoki yaxlitligicha ko‘chma ma’nosi asosiga quriladi.
4. Ot komponentli frazeologizmlar komponentlari ma’lum darajada erkin bo‘lib, ular frazemik ma’noning u yoki bu darajada shakllanishini ta’minlaydi.
5. Frazeologizmlar nominativ ma’nosi bilan birga, obrazli-ekspressiv ifodalash xususiyati o‘zbek tilida fe’l frazeologizmlar mahsuldor shakllanishini belgilaydi.
6. O‘zbek tili frazeologizmlarining ko‘pi fe’l komponentli leksemalar vositasida shakllanadi. Bunda fe’l grammatik tayanch komponent sifatida qatnashadi.
7. O‘zbek tilidagi sifat frazeologizmlar gapda asosan sifatlovchi-aniqlovchi vazifasida keladi. Tadqiqotlar frazeologizmlar shakllanishida semantik tayanch komponent vazifasida, asosan, asliy sifatlar ishlatalishini ko‘rsatadi. Tahlil natijalaridan ma’lum bo‘ldiki frazeologizmlarni shakllantirishda asosan asliy sifatlarning rang-tus va shakl-hajmni bildiruvchi ma’noviy guruhlariga oid leksemalardan foydalilaniladi.
8. Frazeologizmlar paradigmatic shakllari ibora tarkibidagi otning kelishik shakllari bilan o‘zgarishi, fe’lning shaxs-son shakllarida o‘zgarishi natijasida

yuzaga keladi. Shu ma'noda frazeologizmlar paradigmatic shakllari ularning qaysi so'z turkumiga mansubligi bilan belgilanadi.

F O Y D A L A N I L G A N A D A B I Y O T L A R R O ’ Y X A T I

I. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. Мирзиёев Ш.М. “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чоратадбирлари тўғрисида”ги қарори. -Халқ сўзи газетаси. 2017 йил, 21 апрель.
2. Мирзиёев Ш.М. “Ўзбекистон республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида” фармони .- “Қашқадарё” газетаси.. 2017 йил, 7 февраль.
3. Karimov I.A. O’zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida.- Toshkent: O’zbekiston, 1995. – 269 b.
4. Karimov I.A. Zamonaviy kadrlar – taraqqiyotimizning muhim omilidir // Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida. 6-qism. -Toshkent: O’zbekiston, 1998.–T.6.–B.262-267.

II. Asosiy adabiyotlar

5. Abdullayev A. Iboraning ekspressivlik xususiyati //O’zbek tili va adabiyoti. – 1976. – 5-son. – B. 36-39.
6. Begmatov E. Hozirgi o’zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. -Toshkent: Fan, 1985. -200 b.
7. Berdiyorov H., Yo‘ldoshev B. O’zbek frazeologiyasiga doir bibliografik ko‘rsatkich. -Samarqand: SamDU, 1977. -38 b.
8. Berdiyorov X., Rasulov R. O’zbek tilining paremiologik lug‘ati. -Toshkent: O‘qituvchi, 1984. -288 b.
9. Berdiyorov X., Rasulov R., Yo‘ldoshev B. O’zbek frazeologiyasidan materiallar. Uchinchi qism. -Samarqand: SamDU, 1983. -56 b.
10. Bozorboyev Q.T. O’zbek so‘zlashuv nutqi frazeologizmlari: Filol. fanlari nomzodi diss. ... avtoref. – Samarqand, 2001. – 22 b.

- 11.Hakimov Q.M. O‘zbek tilidagi sodda gap qoliqli frazeologizmlar zaruriy birikuvchanliklari: Filol. fanlari nomzodi diss. ... avtoref. -Toshkent, 1994. - 24 b.
- 12.Mamatov A. Frazeologik stilistika masalalari. –Toshkent: Fan, 1991. -120 b.
- 13.Mamatov A.E. Hozirgi zamon o‘zbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma muammolari. – Toshkent: Fan, 1991. -274 b.
- 14.Mamatov A.E. O‘zbek tili frazeologizmlarining shakllanishi masalalari: Filol. fanlari d-ri diss. ... avtoref. - Toshkent, 2000. – 56 b.
- 15.O‘rinboyev B. O‘zbek so‘zlashuv nutqi. -Toshkent: Fan, 1982.-152 b.
- 16.O‘rinboyev B., O‘rinboyeva D. Hozirgi o‘zbek tilining so‘zlashuv uslubi. - Toshkent: Fan, 1991. -161 b.
- 17.O‘zbek tili leksikologiyasi. -Toshkent: Fan, 1981. -316 b.
- 18.O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Ikki tomlik. -M.: Rus tili, 1981. T. I. -632 b.
- 19.O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Ikki tomlik. -M.: Rus tili, 1981. T. II. -715 b.
- 20.Pardayev Z.N. O‘zbek tilida sifatlarning semantik-uslubiy xususiyatlari: Filol. fanlari nomzodi diss. ...avtoreferat. - Samarqand, 2004. - 22 b.
- 21.Rafiyev A. Frazeologizmlar - nutqimiz ko‘rki. -Toshkent: O‘zbekiston, 1985. -22 b.
- 22.Rahmatullayev Sh. Leksema va ibora ma’nosini komponent tahlilining ba’zi natijalari // O‘zbek tili va adabiyoti. – 1986. -№ 3. –B. 16-21.
- 23.Rahmatullayev Sh. Leksikologiya bilan frazeologiya // Hozirgi o‘zbek tili / Sh.Rahmatullayev tahriri ostida. -Toshkent, 1992. –B. 49-186.
- 24.Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilida fe’l frazeologizmlar bog‘lashuvi. – Toshkent: Universitet, 1992. - 126 b.
- 25.Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati. -Toshkent: Qomuslar Bosh tahririyati, 1992. -380 b.

- 26.Rahmutullayev Sh. Frazeologik birliklarning asosiy ma’no turlari. – Toshkent: UzFAN, 1955. -28 b.
- 27.Sodiqova M. Ruscha-o‘zbekcha frazeologik lug‘at. -Toshkent: Fan, 1972. - 192 b.
- 28.Turopova M. Frazeologik variantlar // O‘zbek tili va adabiyoti. - 1988. - № 5. –B. 30-34.
- 29.Turopova M. O‘zbek shevalari frazeologiyasi // O‘zbek shevalari leksikasi. -Toshkent: Fan, 1991. –B. 181-229.
- 30.Tursunov U., Muxtorov J., Rahmutullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili (fonetika, leksikologiya bilan frazeologiya, morfologiya). -Toshkent: O‘qituvchi, 1992. -400 b.
- 31.Умарходжаев М.И. Основи фразеографии. - Ташкент: Фан, 1983. - 136 с.
- 32.Umirov I.E. O‘zbek tilida parafrazalar: Filol. fanlari nomzodi diss. ... avtoref. - Toshkent, 1996. – 23 b.
- 33.Yo‘ldoshev B. Badiiy nutq stilistikasi. –Samarqand: SamDU, 1982. -82 b.
- 34.Yo‘ldoshev B. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida frazeologik birliklarning funksional-uslubiy xususiyatlari: Filol. fanlari d-ri ... diss. -Toshkent, 1993. -297 b.
- 35.Yo‘ldoshev B. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida frazeologik birliklarning funksional-uslubiy xususiyatlari: Filol. fanlari d-ri diss. ... avtoref. - Toshkent, 1993. -49 b.
- 36.Yo‘ldoshev B. Frazeologizmlar adabiy til normasiga munosabatiga doir // O‘zbek tili va adabiyoti. –Toshkent, 1992. – 3-4-sonlar. – B.3
37. Ф о з и л о в М. Фарҳанги зарбулмасал, мақол ва афоризмҳои тоикию форс. Душанбе: Нашриёти “Ирфон”. 1975.
38. Ўзбек халқ мақоллари. Икки жилдлик. Т.: “Фан” нашриёти”. 1-жилд. 1987. 2-жилд. 1988.

39. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. Т.: “Ўқитувчи” нашриёти. 1978.
40. Умаров Э. Фразеологический словарь “Хазойин ул-маоний” Алишера Навои. Т.: “Фан”, 1971.
41. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. Т.: “Ўқитувчи” нашриёти. 1978.
42. Даль В. Напутное//Пословицы русского народа. М.: 1957. Ўзбек халқ мақоллари. Икки жилдлик. 1-жилд. Т.: “Фан”, 1987..
43. Рыбникова М. А. Русские пословицы пословицы и поговорки. М.: 1961.
44. Ўзбек халқ мақоллари. Икки жилдлик. 1-жилд. Т.: “Фан”, 1987.
45. Саломов Ф. Тил ва таржима. Т.: “Фан” нашриёти. 1966.
46. Ўзбек халқ мақоллари. Икки жилдлик. 1-жилд. Т.: “Фан” нашриёти. 1987.
47. Ўзбек халқ мақоллари. Икки томлик. 1-том. Т.: “Фан” нашриёти. 1987.